

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida
UDK 32 (075.1)

Zufarova Sevara Mirdjalilovna

**O'ZBEKISTONDAGI SIYOSIY PARTIYALAR VA ULARNING
DAVLAT BOSHQARUVIDAGI O'RNI**

Mutaxassislik: 5A 110601-Tarix o'qitish metodikasi

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

«Himoya qilishga ruxsat berildi»
Magistratura bo'limi boshlig'i
t.f.n., dotsent _____M.Esanov
2014 y «___» iyun

Ilmiy rahbar:
p.f.n. _____ R.A.Mulladjanova
“Tarix” kafedrasi mudiri,
t.f.n., dotsent _____ Z.A.Ilhomov

Toshkent - 2014

Mundarija

KIRISH.....	3
I BOB. MUSTAQIL O'ZBEKISTONDA KO'PPARTIYAVIYLIKNING SHAKLLANISHI.....	12
1.Siyosiy partiyalarning shakllanish bosqichlari	12
2. Siyosiy partiya tushunchasi, funktsiyalari, turlari va huquqiy asoslari	23
1-bob bo'yicha xulosa	32
II BOB. O'ZBEKISTON SIYOSIY PARTIYALARINING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI O'RNI	33
1. Siyosiy partiyalar va saylov qonunchiligi	33
2. Siyosiy partiyaning parlamentdagi fraktsiyachilik faoliyati	45
2-bob bo'yicha xulosa	53
III BOB. "O'ZBEKISTONDAGI SIYOSIY PARTIYALAR VA ULARNING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI O'RNI" MAVZUSI BO'YICHA EKSPERIMENTAL ISHNI O'TKAZISH VA NATIJALARINI TAHLIL QILISH.....	55
1. Eksperimental ishni o'tkazish metodikasi.....	55
2. Olingan natijalar tahlili va uslubiy tavsiyalar	59
3. Eksperimental guruhda o'tkazilgan seminar mashg'ulotining texnologik xaritasi	63
3-bob bo'yicha xulosa	72
XULOSA.....	74
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	77
GLOSSARIY	86
ILOVALAR	86

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Huquqiy-demokratik davlat qurish, kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida ko'ppartiyaviylikning rivojlanishiga, mustaqil, faol, aholining keng qatlami tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan siyosiy partiyalar va boshqa jamoatchilik tashkilotlarining shakllanishi uchun shart-sharoitlar yaratilishiga katta ahamiyat berildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan muhim qoida siyosiy institutlarning, mafkuralar, fikrlar xilma-xilligi va ularning o'zaro raqobat asosida rivojlanishi belgilab qo'yildi¹.

Yuqoridagidan kelib chiqib Prezident I.Karimov «... aholining turli ijtimoiy va sotsial guruhleri manfaatlarini ifodalovchi, mamlakatimizda shakllanayotgan fuqarolik jamiyatining asosiy institutlari bo'lgan nohukumat va jamoat tashkilotlarining nufuzi va ta'sirini oshirishga katta e'tibor berayotganimizni ham alohida ta'kidlamoqchiman»², – deydi.

Mamlakatda huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurilayotgan, iqtisodiyot modernizatsiya qilinayotgan, respublika rivojlangan jahon davlatlari bilan hamkorlik qilayotgan sharoitda O'zbekiston aholisi turli qatlamlarining manfaatlarini ifoda etishi lozim bo'lgan keng tarmoqli, ko'p partiyali tizim kabi demokratik institutlar hamda boshqa jamoat tashkilotlarining qaror topishi ulkan ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, - «Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlarga saylovlar ko'ppartiyaviylik va muqobillik asosida o'tayotgani mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat shakllangani va saylov tizimimiz xalqaro normalarga to'la mos kelishining dalolatidir».³

O'zbekiston siyosiy partiyalari o'z dasturlarida belgilangan maqsad va maslamlarni davlat hokimiyatining oliy va mahalliy vakillik organlari faoliyatida

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2012. – 12-b.

² Каримов И.А. Тинчлик ва хавфсизлигимиз ўз куч-қудратимизга, ҳамжихатлигимиз ва катъий иродамизга боғлиқ. Т. 13. – Т., 2004. – Б.117.

³ O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov ovoz berdi.http://elections.uz/uzb/news/ozbekiston_prezidenti_islom_karimov_ovozi_berdi_2.mgr

ishtirok etish orqali hayotga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bugun O'zbekiston siyosiy partiyalari hokimiyat uchun kurashning legitim (qonuniy, oshkora) mexanizmlariga ega bo'ldilar. Shulardan kelib chiqqan holda, siyosiy partiyalar va ijtimoiy harakatlarning xalq bilan hokimiyatni bog'lovchi asosiy bo'g'in, ya'ni demokratik institut, davlat hokimiyatining muhim tarmog'i bo'lmish parlamentdagi faoliyati, qonunlarni amalga oshirishda partiya fraktsiyalarining roli ilmiy jihatdan o'rganilishi lozim bo'lgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Mashhur frantsuz siyosatshunos olimi M. Dyuverje o'zining «Siyosiy partiyalar» asarida: «Siyosiy tizimda ko'ppartiyaviylik qaror topgan taqdirdagina davlat xalq manfaatlarini ifoda eta olishi, umummilliy manfaatlarini, sinflar, ijtimoiy guruhlar manfaatlari ustunligini ta'minlay olishi va jamiyatdagi barqarorlikning mustahkam negizini tashkil qila olishi mumkin»¹, – deb ta'kidlagan.

Shu bois, bu yillarda siyosiy tizimda yuz bergan o'zgarishlar, xususan O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining vujudga kelishi, bu borada qo'lga kiritilgan yutuqlarni tahlil qilish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekistondagi siyosiy partiyalarning davlat boshqaruvida tutgan o'rnini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ishlar anchagina bo'lishiga qaramay, O'zbekistonda siyosiy partiyalarning shakllanishi va rivojlanishi tarix fanida hamon eng kam o'rganilgan sohalardan bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonda demokratik printsiplar asosida faoliyat ko'rsatuvchi siyosiy partiyalarning shakllanishi, rivojlanishi, siyosiy tizimdagi o'rni kabi masalalarni o'rganishga asosan mustaqillik yillarida e'tibor berila boshlandi.

Mamlakatimizdagi ko'ppartiyaviylik tizimi, O'zbekiston Respublikasi siyosiy partiyalarining faoliyati, ularning siyosiy tizimdagi o'rni kabi

¹ Duverger M. Les parties politiques. – Paris, 1967. – P. 29.

masalalarni R. Jumaev, N. Jo'raev, S. Jo'raev, A. Jalolov, T. Rahmatullaev, Q. Jo'raev, J. Toshqulov, A. Qodirov, I. Ergashev kabi olimlar o'rganganlar¹.

A. Abdumavlonov, SH. Abbosxo'jaev, I. Bekov, E. Boliev, O. Jumaev, B. Yoqubov, K. Hamidova² kabi olimlar siyosiy partiyalarning saylov jarayonidagi roli, siyosiy raqobat va demokratik saylov qoidalari, saylov jarayonlarida siyosiy partiyalarning faoliyatini moliyalashtirish tartiblariga doir tadqiqotlar olib borganlar.

SH. Quadratxo'jaev, E. Xalilov³ kabi tadqiqotchilar esa siyosiy partiyalarning parlamentdagi faoliyatiga qisqacha to'xtalib o'tganlar.

Fuqarolik jamiyatining asosiy elementi sifatida siyosiy partiyalarning funktsiyalari, maqsadlari, turlari, belgilari, tarixiy rivojlanishini tarixiy nazariya jihatdan M. Qirg'izboev o'rgangan. Jumladan, u xorijiy mamlakatlar siyosiy partiyalarining tajribalarini tahlil qilgan, frantsuz siyosatshunosi M. Dyuverje ishlab chiqqan siyosiy partiyalar tipologiyasini (kadrlar partiyalari va ommaviy partiyalar) tahlil qilgan⁴. Partiyalar tipologiyasini o'rganishga boshqa olimlarimiz ham e'tibor qaratganlar. Jumladan, Sh. Mamadaliev partiyalarni

¹ Абдунабиев А. Многопартийность – форма политической организации общества. Тошкент: Ўзбекистон, 1991. – 111 с.; Джураев С. Время повышать активность // Народное слово. – Ташкент, 2002. – 20 дек.; Жалолов А. Халқ билан ҳамнафас партия // Мустақиллик масъулияти (фалсафий-сиёсий қирралар). – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – Б. 7–12-б.; Жумаев Р. Многопартийность в структуре политической системы Республики Узбекистан // Правовое государство – независимость, нация, экономика, идеология, политика. – Тошкент: Адолат, 1994. – С. 71–81; Жўраев Н. Демократияни янада чуқурлаштириш. Кўппартиявийлик // Ўзбекистоннинг янги тарихи. – Тошкент: Шарқ, – 2000. – Б. 150–188; Жўраев С., Ташкулов Ж. Многопартийность в структуре политической системы Республики Узбекистан // Правовое государство – независимость, нация, экономика, идеология, политика. – Тошкент: Адолат, 1994. – С. 116–153; Раҳматуллаев Т. Сиёсий партия ва демократик тамойиллар. – Самарканд: Зарафшон, 1989. – 80 б.; Эргашев И. Сиёсий партиялар ва ижтимоий қатламлар // Фидокор. – Тошкент, 2000. – 3 май; Қодиров А. Ўзбекистонда кўппартиявийлик тизимини шакллантиришнинг концептуал муаммолари // Ҳуқуқ–Право–Law. – Тошкент, 2002. – № 4. – Б. 51–53.

² Абдумавлонов А. Мақсад – ихтилоф эмас, ҳамкорлик // Халқ сўзи. – Тошкент, 1994. – 1 апр.; Болиев Э. Номзодингизнинг кимлигини биласизми? // Халқ сўзи. – Тошкент, 2004. – 26 нояб.; Беков И. Р., Аббосхўжаев Ш. А. Сайлов ва сиёсий партиялар. – Тошкент: ТДЮИ, 2004. – 40 б.; Ёқубов Б. Ишончсизлик ва ишонч // XXI аср. – Тошкент, 2004. – 3 июнь; Жумаев О. Сиёсий партияларнинг сайлов жараёнидаги этикаси. – Тошкент: ТДЮИ, 2004; Жўраев Қ. А. Ривожланган давлатларда кўппартиявийликнинг шаклланиши – демократик тараққиётнинг муҳим омили сифатида (Франция сиёсий тажрибаси мисолида). – Тошкент: ЖИДУ, 1999. – 25 б.; Ҳамидова К. Т. Сайловлар ва сиёсий партиялар фаолиятини молиялаштириш. – Тошкент: ТДЮИ, 2004. – 39 б..

³ Қудратхўжаев Ш. Т. Ўзбекистон Республикасида парламент тизимининг сиёсий институтлар сифатида шаклланиши ва ривожланиши истикболлари. – Тошкент, 2005. – 158 б.; Халилов Э. Х. Ўзбекистон Республикасининг қонун чиқарувчи олий органи: сохта вакилликдан ҳақиқий парламентаризмга қадар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – 384 б.; Унинг ўзи. Халқ фаровонлиги ва мамлакат тараққиёти йўлида // Халқ сўзи. – 1999. – 25 сент.

⁴ Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: сиёсий партиялар, мафкуралар, маданиятлар. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 160 б.; Унинг ўзи. Фуқаролик жамияти: назария ва хорижий тажриба. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – 204 б.; Унинг ўзи. Партология. – Тошкент: Академия, 2007. – 191 б.

g'oyaviy qarashlari (pragmatik, kommunistik, milliy va diniy), hokimiyatga munosabati (hokimiyat partiyasi, muxolafatdagi, nooppozitsion partiya), hokimiyat uchun kurashish shakli (parlament va avangard)ga ko'ra tiplarga ajratadi¹, siyosiy partiyalarning xalq hokimiyatchiligidagi o'rni va ahamiyatiga to'xtalib, uni "xalq hokimiyatchiligining muhim bo'g'ini" sifatida ta'riflaydi².

Shu bilan birga, hozirgi paytda partiyalarning shakllanish va rivojlanish tarixini davrlarga ajratish masalasi ham ko'tarilmoqda. Olimlar O'zbekiston siyosiy partiyalari faoliyatini, ularning shakllanishi va tashkil topishi jarayonlarini turli bosqichlarga bo'lib o'rganishgan.

Masalan, Q. Jo'raev O'zbekistonda siyosiy partiyalarning shakllanishini quyidagi ikki davrga bo'lib o'rganishni tavsiya etadi: 1) bir partiyalilik, siyosiy diktatdan qutulish, muqobillik asosidagi Prezident saylovlari, yuqori darajadagi davlat hokimiyati tuzilmalarini yangilash davri bo'lgan 1991–1994 yillar; 2) jamiyatni demokratlashtirish va modernizatsiyalash jarayonlarining kuchayishi uchun muhim bosqich bo'lgan, ko'ppartiyaviylikka tayangan jamiyatning huquqiy fundamentiga asos solingan, qonunlar qabul qilingan, yangi partiyalar tuzilgan 1995–1999 yillar³.

V. Dubkov esa siyosiy partiyalarning shakllanish va rivojlanish jarayonini to'rt bosqichga bo'lib o'rgangan: *birinchi davr* (1988–1990 yy.) – jamiyatda O'zbekiston kompartiyasining yakka hukmronligini bartaraf etish orqali yangi siyosiy partiyalar yuzaga kelishi uchun ob'ektiv sharoitlarning yetilishi; *ikkinchi davr* (1991 y.) – mustaqil O'zbekiston Respublikasining e'lon qilinishi, Kompartiyaning tarqalib ketishi, «Erk» demokratik partiyasi hamda O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi tashkil qilinib, ikki partiyali tuzumning yuzaga kelishi, mamlakat Prezidentining ikki partiyali asosda saylanishi; *uchinchi davr*

¹ Мамадалиев Ш. Халқ ҳокимиятчилиги. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2003. – Б. 55.

² Мамадалев Ш. О. Халқ ҳокимияти. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2003. – 224 б.; Унинг ўзи. Ўзбекистон сиёсий партиялари // Адолат. – 1998. – 5 июнь; Унинг ўзи. Ўзбекистон сиёсий партиялари: талаб ва таклиф // Хуррият. – 1999. – 8–14 сент., 13–19 окт.; Унинг ўзи. Ўзбекистон сиёсий партиялари: шаклланиш жараёнлари ва ривожланиш истиқболлари. – Тошкент, Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2004. – 52 б.

³ Жўраев Қ. Ривожланган давлатларда кўппартиявийликнинг шаклланиши – демократик тараққиётнинг муҳим омили сифатида (Франция сиёсий тажрибаси мисолида): Сиёсий фан. номз. ... дис.. – Тошкент, 1999. – Б. 86–87.

(1992–1994 yy.) – ko’ppartiyaviylikning qonuniy tus olishi (legitimlashuvi), ya’ni O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi va unda siyosiy partiyalar mavjudligining huquqiy maqomi belgilanishi, «Vatan taraqqiyoti» partiyasining tashkil etilishi, Oliy Majlis va mahalliy Kengashlarga ko’ppartiyaviylik asosida saylov o’tkazilishi; *to’rtinchi davr* (1995 yildan boshlab) – ko’ppartiyaviylikning mustahkamlanishi: yangi partiyalarning tashkil etilishi, «Siyosiy partiyalar to’g’risida»gi qonunning qabul qilinishi, Oliy Majlis, mahalliy Kengashlarga hamda O’zbekiston Respublikasi Prezidentligiga ko’ppartiyaviylik asosida saylovlar o’tkazilishi¹.

Shuningdek, N.Rasulova ham o’z nomzodlik ishida O’zbekistonda ko’ppartiyaviylik shakllanishining tarixiy taraqqiyotini 5 bosqichga bo’lib o’rganishni taklif etgan²:

Birinchi bosqich – yakka partiyaviylikning tugatilishi va ko’ppartiyaviylik shart-sharoitlarining yaratilishi (1991–1994 yy.).

Ikkinchi bosqich (1995–1999 yy.) – siyosiy partiyalarning siyosiy dasturlari va saylovoldi platformalarini shakllantirish, aholining umumiy siyosiy madaniyatini oshirishga qaratilgan qonunchilik asoslarini takomillashtirish davri.

Uchinchi bosqich (2000–2004 yy.) – partiyalarning siyosiy tajriba to’plash va siyosiy yetuklikka erishish vazifalarini hal etishi, moliyaviy mustaqilligini ta’minlashi, jamiyatda o’z o’rni va doimiy elektoratini belgilab olishi.

To’rtinchi bosqichning xususiyati (2005–2006 yy.) siyosiy partiyalarning eng muhim davlat qarorlari qabul qilinishiga ta’sirning kuchayishi, partiya fraktsiyalarining Oliy Majlis faoliyatidagi hamda partiya guruhlarining xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlari ishidagi faolligining o’sishi, parlament nazorati funktsiyalarining kuchayishi, parlamentda konstruktiv muxolafatning shakllanishi.

Beshinchi bosqich (2007– hozirgi kunlar) siyosiy partiyalar faoliyatining yangi konstitutsiyaviy qonun asosida jadallashuvi.

¹ Дубков В. Многопартийность как институт формирующегося в Узбекистана гражданского общества // Общественное мнение. Права человека. – Ташкент, 2004. – № 1. – С. 90.

² Расулова Н. С. Ўзбекистон Республикасида сиёсий партияларнинг вужудга келиши ва ривожланиши: муаммо ва ечимлар (1991-2009 йиллар). Тарих фан. номз. дисс... автореф. – Т., 2010. – 5-б.

N. Jo'raevning¹ ilmiy ishlarida mustaqillik yillarida siyosiy partiyalarning jamiyatda tutgan o'рни, faoliyati haqida ma'lumotlar berilgan. Siyosiy partiyalarning mustaqillik yillaridagi faoliyatining ayrim yo'nalishlarini A. Abdunabiev, Q. Usmonov, D. Razzoqov, N. Rasulova² kabi tarixchi olimlar ham o'rganishgan.

Tadqiqotning manbaviy asoslari. Dissertatsiya ustida ishlash jarayonida turli manbalardan olingan hujjatlardan foydalanildi. Tadqiqotning asosiy manbaini siyosiy partiyalar markaziy kengashlarining joriy arxivlaridan olingan hujjatli materiallar, nizom va dasturlari tashkiletdi. Shuningdek, siyosiy partiyalar faoliyatini tartibga soluvchi muhim normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Jamoat birlashmalari to'g'risida"gi (1991-yil 15-fevral), «Siyosiy partiyalar to'g'risida» (1996-yil 26-dekabr), «Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida»gi (2004-yil 30-aprel) qonunlari; «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida» (2007-yil 11-aprel) konstitutsiyaviy qonunlari ham muhim manbaviy asos bo'ldi.

Tadqiqotning davriy chegarasi 1991–2014 yillarni qamrab oladi. Mustaqillikning 23 yili davomida O'zbekistonda keng qamrovli tub islohotlar amalga oshirilishi bilan bir qatorda huquqiy-demokratik davlat qurish yo'lida dastlabki qadamlar qo'yildi. Mustaqillikka erishilgach, siyosiy islohotlar natijasida O'zbekistonda yangi voqelik – ko'ppartiyaviylikka asoslangan demokratik siyosiy tizim shakllana boshladi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Magistrlik dissertatsiyasining **maqsadi** – O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan siyosiy partiyalarning

¹Жўраев Н. Демократияни янада чуқурлаштириш. Кўппартиявийлик // Ўзбекистоннинг янги тарихи. – Тошкент: Шарқ, – 2000. – Б. 150–188.

²Абдунабиев А. Многопартийность – форма политической организации общества. – Ташкент: Узбекистан, 1991. – 111 с.; Усмонов Қ. Ўзбекистон тарихи (миллий истиклол даври): Академик лицей ва касб-хунар коллежларининг 2-курс ўқувчилари учун дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 2003. – 328 б.; Раззоқов Д. Х., Одилокorieв Х. Т. Сиёсатшунослик. – Тошкент: Ўқитувчи, 2008. – 344 б.; Расулова Н. С. Ўзбекистон Республикасида сиёсий партияларнинг вужудга келиши ва ривожланиши: муаммо ва ечимлар (1991-2009 йиллар). Тарих фан. номз. дисс... – Т., 2010. – 156 б.

faoliyatini o'rganish va ularning davlat boshqaruvidagi rolini manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilish va tegishli xulosalar chiqarishdan iborat.

Ko'zlangan ushbu umumiy maqsaddan kelib chiqib, tadqiqotda quyidagi *vazifalar* belgilandi:

- O'zbekistonda siyosiy partiyalarning tashkil topishi arafasidagi siyosiy jarayonlarni o'rganish;
- mustaqil O'zbekiston siyosiy partiyalarining xalq orasidagi, parlamentdagi va saylovlardagi faoliyatini tahlil qilish;
- yangi konstitutsiyaviy qonun asosida siyosiy partiyalarga berilgan keng huquq va imkoniyatlarni tahlil qilish;
- davlat boshqaruvida siyosiy partiyalarning roli oshib borayotganligini o'rganish;
- siyosiy partiyalar faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan qonun hujjatlari va ilmiy adabiyotlarni ko'rib chiqib, tahlil qilish;
- O'zbekiston siyosiy partiyalari va ularning davlat boshqaruvidagi o'rnini ta'lim tizimida o'qitish bo'yicha dars ishlanmasi va metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ektini O'zbekiston siyosiy partiyalari va davlat boshqaruv tizimi tashkil etadi.

O'zbekiston siyosiy partiyalari va davlat boshqaruv tizimi tarixi va uni o'qitish metodikasini o'rhanish, tadqiq etish **tadqiqotning predmetini** tashkil etadi.

Dissertatsiyaning nazariy va uslubiy asoslari. Tadqiqotni yozish, tahlil qilish, ilmiy xulosalarga kelish, taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasining yangi tarixini yaratish to'g'risida»gi (1996-yil 16-dekabr) va «O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix institutining faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi (1998-yil 27-iyul) qarorlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning asarlari, nutq va suhbatlarida O'zbekistonda siyosiy partiyalar faoliyatini yanada

takomillashtirishga oid fikr-mulohazalari, kontseptual g'oyalari, amaliy xulosalari metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqotni yozish, tahlil qilish, ilmiy xulosalarga kelishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning asarlari, nutq va suhbatlarida O'zbekistonda siyosiy partiyalar faoliyatini yanada takomillashtirishga oid fikr-mulohazalari, kontseptual g'oyalari, amaliy xulosalari metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

Mavzuni yoritish jarayonida ijtimoiy voqelikni bilish va o'rganishning dialektik metodi, uning ilmiylik, xolislik, tarixiylik, tizimlilik va rivojlanish tamoyillariga tayanildi. Shuningdek, analiz, sintez, qiyosiylik, tarixiylik, xronologik va boshqa bir qator uslublardan foydalanildi.

Ishning ilmiy yangiligi. O'zbekiston siyosiy partiyalarining davlat boshqaruvida tutgan o'rni mustaqil tadqiqot sifatida kompleks va tarixiylik nuqtai nazaridan o'rganildi, uni o'qitish metodikasi ishlab chiqildi va tegishli ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalar tayyorlandi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya tarix fani oldida turgan dolzarb vazifalardan sanalgan O'zbekistonning eng yangi tarixini yaratish borasidagi ilmiy izlanishlardan biridir. Uning natijalaridan kelgusida siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish masalalarini ijobiy hal qilishga qaratilgan amaliy tadbirlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Dissertatsiya xulosalaridan «O'zbekiston tarixi», «O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti», «Siyosatshunoslik» fanlaridan ma'ruzalar tayyorlashda va amaliy mashg'ulotlar o'tishda qo'llanishi mumkin.

Natijalarning joriy qilinishi. Ilmiy tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan xulosa va takliflar “Tafakkur sarchashmalari” (2013-yil 2-sonli) to'plamida “O'zbekiston siyosiy partiyalarining saylovlardagi ishtiroki” nomli maqola hamda 2014 yilda chop etilgan “Pedagogik innovatsiyalar” nomli

magistrantlarning ilmiy-metodik maqolalari to'plamida "Mustaqillik yillarida O'zbekiston siyosiy partiyalarining faoliyati" maqolalari orqali e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, yettita paragrafni o'z ichiga olgan uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalardan iborat. Tadqiqotning umumiy hajmi 95 betni tashkil etadi.

I BOB. MUSTAQIL O'ZBEKISTONDA KO'PPARTIYAVIYLIKNING SHAKLLANISHI

1.Siyosiy partiyalarning shakllanish bosqichlari

Fuqarolik jamiyatining eng muhim institutlaridan biri – siyosiy partiyalardir. Siyosiy partiyalar fuqarolik jamiyatini siyosiy tizim bilan o'zaro aloqalarining doimiyligini ta'minlaydi, davlat hokimiyatining jamiyatga bog'liqligi va uning jamiyat tomonidan nazorat qilinishi ko'p hollarda siyosiy partiyalar orqali amalga oshiriladi¹.

O'zbekistonda milliy mustaqillik uchun harakat ikki tomonlama bordi, ya'ni, bir tomondan, kommunistik totalitar tuzum asoratlaridan xalos bo'lish jarayoni bilan uyg'un ravishda kechgan bo'lsa, boshqa tomondan, jahondagi rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosidagi mahalliy xalq mentalitetidan kelib chiqib jamiyatni demokratlashtirish bilan hamohang bordi. Albatta, demokratiya ko'ppartiyaviylik bilan bog'liq. Partiya yagona va bo'linmas bo'lib, respublikalar darajasida biron-bir jiddiy mustaqillikka yo'l qo'yilmas edi. SSSRda ittifoqdosh respublikalar kompartiyalari sof etnografik qoida bo'yicha – O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston kompartiyasi tarzida tuzilardi².

90-yillar boshidayoq ilk siyosiy islohotlarining bosh maqsadlaridan biri ko'p partiyaviylik tizimini joriy etish, davlat va hukumatdan ayrim jamoat birlashmalari tuzilmalarining erkin faoliyat ko'rsatishi uchun huquqiy shart-sharoitlar yaratishga intilish bo'ldi. 1991 yil 15 fevralda O'zbekistonda jamoat birlashmalari to'g'risida qonun qabul qilindi. Ushbu qonun respublika hayotidagi jamoat birlashmalari faoliyatini tubdan isloh qilishga, ularning sobiq yakkahokim mafkuradan poklanishiga, shuningdek, jamoat birlashmalari tuzilmalarini davlat va hukumat tizimidan ajratishga huquqiy shart-sharoitlar yaratib berdi. Respublika ijtimoiy-siyosiy hayotida birinchi marta mazkur qonunda jamoat birlashmalarining maqsadlari xalqaro va demokratik mezonlar asosida ta'riflab berildi: «Jamoat birlashmalari fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy,

¹ Кирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: назария ва хорижий тажриба. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – Б. 104.

² Левитин Л. Ўзбекистон тарихий бурилиш палласида. — Т., 2001. — 129–132-б.

ijtimoiy va madaniy huquqlar hamda erkinliklarni ro'yobga chiqarish va himoya qilish, fuqarolarning faolligi va tashabbuskorligini, davlat va jamoat ishlarini boshqarishda ularning ishtirok etishini rivojlantirish...»¹ maqsadida tuziladi.

Mamlakat tarixida birinchi marta jamoat birlashmalarining mustaqilligi, ularning davlat va hukumatdan alohida faoliyat yurituvchi huquqiy sub'ekt ekanligi tan olindi. Bu holat fuqarolik jamiyatiga xos belgilardan biri edi. Qonunda davlat idoralari va mansabdor shaxslarning jamoat birlashmalari faoliyatiga aralashishi, shuningdek, jamoat birlashmalarining davlat idoralari va mansabdor shaxslarning faoliyatiga aralashishi mumkin emasligi mustahkamlandi. Ittifoqda M. S. Gorbachev boshchiligida e'lon qilingan qayta qurish siyosati natijasida ko'plab ittifoqdosh respublikalarda turli-tuman ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini ifoda etuvchi jamoat birlashmalari paydo bo'ldi.

80-yillarning ikkinchi yarmida O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida jiddiy o'zgarishlar, ayniqsa jamoat tashkilotlarining faollashuvi, siyosiy faoliyatining keskin ko'tarilishi yuz berdi. 1986–1987 yillarda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi muxolafat harakatining markazi bo'ldi. O'sha vaqtda bu yerda asosan ekologiya masalalari – Orol fojiasi, qishloq xo'jaligida paxta yakkahokimligining ta'siri va shunga o'xshash boshqa mavzular muhokama qilindi. O'qtin-o'qtin siyosiy muammolar ham ko'tarilar edi. Masalan, «Дружба народов» va «Литературная газета»da o'zbek tilining ahvoli, ta'limning ruslashtirilishi, arab alifbosini o'qitish zarurligi kabi masalalarga doir maqolalar bosilib chiqdi².

1988 yilga kelib Yozuvchilar uyushmasi respublikaning siyosiy hayotiga sezilarli ta'sir o'tkazuvchi jamoat markaziga aylandi. 1988 yilning 11 noyabrida «Birlik» xalq harakatini tuzish to'g'risida qaror qabul qilindi. 1989 yil yanvarida o'tkazilgan mitingda «O'zbekiston ozod yoshlari» tashkiloti tuzilgani e'lon qilindi. Mart oyida «Erkin so'z» gazetasining dastlabki nusxasi paydo bo'ldi.

¹ Ўзбекистон Республикасида жамоат бирлашмалари тўғрисида // Ўзбекистон Республикасининг қонунлари. 4-сон. — Т., 1993. — 155-б.

² Левитин Л. Ўзбекистон тарихий бурилиш палласида. — Т., 2001. — 177-б.

M. Qirg'izboevning fikricha, «Birlik» xalq harakati ilk jamoat tashkilotlaridan biri bo'lganligi sababli ham ko'plab xato va kamchiliklardan xoli bo'lmadi. Harakat ko'p holatlarda jamoat tashkiloti sifatida tashkil etilgan va davlat ro'yxatidan o'tgan bo'lsa-da, u o'zida siyosiy partiyaga xos faoliyat boshladi. Harakatning dasturi ham uning a'zolarini siyosiy jarayonlarda ishtirok etishga kengroq jalb qilishga qaratilgan edi¹.

Harakat faollari ko'proq miting, namoyishlar o'tkazish, mahalliy rahbarlarga tazyiq qilish, qanday qilib bo'lmasin, hukumat va uning mahalliy organlari faoliyatidan xato va kamchiliklar topish, turg'unlik davrida nochor holga tushib qolgan kishilar ehtiroslarini avj oldirish kabi usullari bilan faoliyat ko'rsatar edilar². Ularning sobiq sotsialistik tuzumdan keyin qanday tuzum yoki jamiyatga o'tish haqida hech qanday nazariy va mafkuraviy maqsadlari ham yo'q edi.

1989 yil sentyabrida «Birlik» harakatida bo'linish sodir bo'ldi. Uning Salay Madaminov (Muhammad Solih) tevaragiga birlashgan bir qismi «*Erk*» partiyasini ta'sis etdi. Levitin o'z asarida «O'zbekistonning darhol va to'la mustaqilligiga erishish partiyaning dasturiy maqsadi edi»³, deb ta'kidlaydi. 1990 yil 30 aprelda «Erk» demokratik partiyasining ta'sis qurultoyida uning dasturi va nizomi qabul qilindi. 1991 yil sentyabrida mitingbozlik taktikasidan voz kechgan «Erk» partiyasi hech bir muammosiz Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tdi. Partiya rahbariyati o'z gazetasini chiqarish to'g'risida hokimiyat ma'murlari bilan kelishib oldi va bu bilan kifoyalanmay, bu gazetani O'z KP MK bosmaxonasida 60 ming nusxa chop etish imkoniyatiga ham ega bo'ldi. Partiyaning o'sha paytda 54 ming a'zosi bor edi, shuningdek ularga Toshkent markazida durustgina bino, zarur aloqa va transport vositalari berildi⁴.

Mazkur partiyaning ham hujjatlari, nazariy kontseptsiyalari, tashkiliy tuzilishi va ish faoliyati eski tuzum va usullardan xoli bo'la olmadi. «Erk»

¹Ўзбекистон «Бирлик» халқ ҳаракати. Дастур ва низом. — Т., 1990. — 5–6-б.

²Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: сиёсий партиялар, мафкуралар, маданиятлар. — Т., 1998. — 113–115-б.

³Левитин Л. Ўзбекистон тарихий бурилиш палласида. — Т., 2001. — 179-б.

⁴О'sha manba. — 179-б.

partiyasining dasturi asosan Ittifoq parchalanganidan keyingi siyosiy-ijtimoiy muhitda inqilobiy o'zgarishlar qilishga qaratilgan bo'lib, unda eski jamiyatda yashagan o'zbek xalqining ruhiyati, mentaliteti, ijtimoiy-siyosiy qarashlarining asta-sekinlik bilan o'zgarib borishi hisobga olinmagan edi¹.

Prezident I. Karimov «Erk» partiyasining xayrixohligi, uning ijobiy kuch sifatida siyosiy tizimga qo'shilishdan umid qilgan edi. Lekin aksi bo'ldi. Amaldagi hokimiyat milliy manfaatlarni muxolafatdan qat'iyroq himoya qila boshlagach, siyosiy manfaatlarga mukkasidan ketgan muxolafat nima qilarini bilmay qoldi. Mamlakatga dabdabali shiorlar emas, amaliy islohot dasturlarini taklif qiladigan odamlar muxolafat orasidan chiqmadi. Hokimiyatni to'xtovsiz tanqid qilish, hokimiyatni ag'darishga qodir kuch sifatida talabalar va umuman yoshlarga murojaat etish boshlandi².

1992 yil 3 iyunda «O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida»gi qonunga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilishi munosabati bilan 1993 yilning mart oyida hukumat qonunga amal qilishni va uni bajarishni ta'minlash maqsadida barcha jamoat birlashmalari va siyosiy partiyalarni Adliya vazirligidan qayta ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida qaror qabul qildi. Respublikadagi deyarli barcha jamoat birlashmalari qayta ro'yxatdan o'tdilar³.

Prezident saylovlarida ham qatnashgan Salay Madaminov(Muhammad Solih)ning yetarli ovoz ololmaganligining quyidagi o'ziga xos asoslari bor edi:

1) u hali partiya rahbari va siyosiy yetakchi sifatida omma ichiga kirib ulgurmagan, xalqning alohida e'tiborini qozonolmagan edi;

2) «Erk» demokratik partiyasi dasturlari, partiya rahbariyatining omma orasidagi chiqishlari tom ma'noda jamiyatni tubdan isloh qilish va uni butunlay yangi o'zanga burib yuborishga qodir emasligini xalq yaxshi tushunib olgan edi. Ular ortiqcha shovqin-suron bilan sun'iy ravishda o'z nufuzlarini oshirishga intilardi;

3) I. Karimov esa mamlakatda eng qiyin va ziddiyatli paytlarda o'z

¹Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: сиёсий партиялар, мафкуралар, маданиятлар. — Т., 1998. - 116-б.

²Левитин Л. Ўзбекистон тарихий бурилиш палласида. — Т., 2001. — 179-б.

³ О'sha manba. — 118-б.

iqtidorini ko'rsata olgan, o'z fikrining va g'oyasining to'g'riligiga xalqni ishontira olgan edi. Bu ayniqsa Sovet Ittifoqi tarqalishi oldidan yuz bergan jiddiy ijtimoiy-siyosiy jarayonlar – millatlararo nizolar, qonli to'qnashuvlar va eng muhimi Moskva bilan Toshkent o'rtasidagi siyosiy kurashlarda yaqqol ko'zga tashlangan edi¹.

Shu bilan bir qatorda, respublikada kommunistik partiya va uning tuzilmalarini tugatish, kommunistik mafkura va dunyoqarashdan poklanish jarayonlari ham tadrijiy yo'l bilan ro'y berdi. Mamlakatda xalq manfaatlari va siyosiy irodalarini erkin bildirish va ularni erkin ifoda etish uchun huquqiy asoslar va erkin siyosiy muhit yaratilishi bilan hamohang tarzda siyosiy partiyalar ham tuzila boshlandi.

Prezident I. Karimovning quyidagi fikrlari juda asoslidir: «Partiya degani – bu mansab uchun, lavozim uchun kurash emas, balki muayyan g'oya uchun, uning jamiyatda ustuvor bo'lishi va ro'yobga chiqishi uchun kurash demakdir. Agar partiya ma'nosini mana shu nuqtai nazardan tushunar ekanmiz, qancha partiya bo'lsa bo'laversin, ularning faoliyatiga tegishli sharoit yaratib beriladi.

Ammo, jamiyatni bo'lib tashlash, odamlarni bir-biriga qarama-qarshi qilib qo'yish, turli beqarorliklar keltirib chiqaradigan g'oyalar targ'ib qilinadigan bo'lsa, bunday partiyalar bizga kerak emas»².

Demokratik jamiyatni barpo etish aholining siyosiy faolligi va siyosiy madaniyati, odamlarning yangi demokratik qadriyatlarni idrok etish masalalari bilan bog'liq. SHu jihatdan, turli siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlarining shakllanishi va qaror topishi muhim o'ringa ega. Bunday tuzilmalar zahirida fuqarolar ongini shakllantirish, odamlarning ijtimoiy faolligini oshirish istiqbollari mujassamlashadi. Siyosiy partiyalarning vujudga kelishi va ularning faoliyati demokratik jamiyat uchun zarur bo'lgan siyosiy muxolafatni shakllantiradi.

¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Т., 2000. 3-к. — 169–170-б.

² Каримов И. А. Ўзбекистон иқтисодий сиёсатининг устувор йўналишлари. Т. 2. — 351-б.

Mustaqillik yillarida respublikamizda ko'ppartiyaviylik tizimi shakllandi. O'zbekistonda milliy mustaqillik uchun harakat avval kommunistik partiya asoratlaridan xalos bo'lish, poklanish jarayonlari bilan uyg'un ravishda kechgan bo'lsa, so'ngra jahondagi ilg'or mamlakatlar partiyaviy tajribasiga tayanib, mahalliy xalq mentalitetiga asoslanib, jamiyatni demokratlashtirish bilan hamohang bordi. «Amaldagi ko'ppartiyaviylik – bu har xil kurash va g'oyalar o'rtasidagi bahs-munozara, turli partiyalar, jumladan muxolif partiyalar uchun ham siyosiy raqobat maydoni demakdir»¹.

Hozirgi kunda O'zbekistonda quyidagi 4 ta siyosiy partiya o'zaro raqobat asosidafaoliyat olib bormoqdalar: 1) O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi, (O'z XDP); 2) O'zbekiston «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi («Adolat» SDP); 3) O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi («Milliy tiklanish» DP); 4) Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi (O'zLiDeP). Partiyaviy raqobat, kurash ko'ppartiyaviy tizimni harakatlantiruvchi kuchidir. Partiyaviy raqobat, fraktsiyalararo kurash bo'lmasa jamiyat rivojlanmaydi. SHu sababli ham, Konstitutsiyamizning 12-moddasida «O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas»² – deya e'tirof etilgan.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi 1991-yil 1-noyabrda uning ta'sis qurultoyida tashkil topgan. O'tgan davr mobaynida partiyaning II (1994-yil oktyabr), III (1999-yil oktyabr), IV (2004-yil noyabr) va V (2005-yil iyul) qurultoylari bo'lib o'tgan. O'zXDPning V qurultoyining qaroriga muvofiq, 2006-yilning yanvar-iyul oylarida partiya a'zolarini qayta ro'yxatdan o'tkazish tadbirlari amalga oshirildi. Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga 2004-yilda bo'lib o'tgan saylov natijalariga ko'ra partiyaning 28 deputatdan iborat fraktsiyasi shakllantirilgan bo'lsa, 2009-yildagi saylov natijalariga ko'ra ushbu

¹Каримов И. А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. Т.8. – Т., 2000. – Б.333.

² Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Т., 2010. – Б.5.

partiyadan 32 nafar deputatdan iborat fraktsiya vujudga keldi. Bugungi kunda partiyaga aʼzolar soni 368 214 kishini tashkil etadi¹.

Fraktsiya² (biror-bir siyosiy partiyaning qonunchilik organining siyosatini parlamentda, mahalliy oʻz-oʻzini boshqarish organlarida, jamoat tashkilotlarida ifoda etuvchi tashkiliy guruh) mamlakat parlamentidagi siyosiy partiyalardan saylangan deputatlar guruhiga aytiladi. Yanada aniqroq taʼrif Oʻzbekiston Respublikasining «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish toʻgʻrisida»gi konstitutsiyaviy qonunda aks etgan. Unda: «Siyosiy partiya fraktsiyasi siyosiy partiyalardan koʻrsatilgan deputatlar tomonidan partiya manfaatlarini Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida ifodalash maqsadida tuziladigan va belgilangan tartibda roʻyxatdan oʻtkazilgan deputatlar birlashmasidir»³, – deyiladi.

OʻzXDPning oʻz matbuot nashrlari bor. Ular «*Oʻzbekiston ovozi*» va «*Golos Uzbekistana*» gazetalaridir. OʻzXDPning bosh maqsadi – mamlakatda siyosiy va iqtisodiy erkinliklar, demokratiya va qonuniylik, tenglik va ijtimoiy adolat kabi umuminsoniy tamoyillarga amal qilib, har bir kishining tinch va osoyishta hayoti, farovonligi va butun mamlakatning gullab-yashnashini taʼminlay oladigan siyosiy va davlat tuzumiga ega boʻlgan jamiyat qaror toptirishdir. Hozirgi kunda ushbu siyosiy partiya mamlakatimizda oʻz oldiga qoʻygan yuqoridagi maqsadni amalga oshirishda jonbozlik koʻrsatmoqda. Uning mafkurasini sotsial-demokratiya tashkil etadi.

Oʻzbekiston «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi 1995-yil 18-fevralda tashkil topgan. «Adolat» SDP Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida 10 kishidan (2005–2009-y.) iborat oʻz fraktsiyasiga ega boʻlgan boʻlsa, 2009-yildagi saylov natijalari boʻyicha parlamentda 19 deputatlik oʻrniga ega boʻlib, oʻz fraktsiyasini tashkil etdi. Partiyaning fraktsiyasi Qonunchilik

¹ www.xdp.uz

²Фракция (фр. Fraction) – кисм, бўлак; улуш. Қаранг: Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж.ИВ. –Т., 2008. – Б.364.

³ Ўзбекистон Республикасининг «Давлат бошқарувини янгилаш ва янада демократлаштириш ҳамда мамлакатни модернизация қилишда сиёсий партияларнинг ролини кучайтириш тўғрисида»ги конституциявий қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг ахборотномаси. – 2007. – № 4. – 161-м.

palatasida hamda qo'mitalarning faoliyatida, qonun loyihalarini tayyorlashda, ularning muhokamasi va qabul qilinishida faol ishtirok etib kelmoqda. Partiyaning matbuot nashri «*Adolat*» ijtimoiy-siyosiy gazetasi hisoblanadi. Partiyaning maqsadlari – mamlakat mustaqilligini mustahkamlash, iqtisodiy va siyosiy islohotlarni jadallashtirish, adolatli, demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish, xalqaro maydonda O'zbekistonning obro'sini yuksaltirishga munosib hissa qo'shish. Uning mafkurasini sotsial-demokratiya tashkil etadi. Ayni paytda partiya a'zolarining soni 70 ming nafardan ortiq¹.

O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi 1995-yil 3-iyunda tashkil topgan. A'zolarining soni 176 676 nafarga yaqin. Partiyaning Oliy Majlis Qonunchilik palatasida 29 nafar (2004-y.) fraktsiyasi bo'lgan bo'lsa, hozirda 31 nafar (2009-y.) dan iborat fraktsiyasi faoliyat yurityapti. Partiyaning markaziy nashri – «*Milliy tiklanish*» gazetasidir. Partiyaning maqsadlari – millatning o'zini o'zi anglash, milliy tafakkur ravnaqiga keng yo'l ochish, fuqarolarda Vatanga sadoqat va muhabbat tuyg'usini to'liq shakllantirish, bozor munosabatlariga asoslangan jamiyat qurish, umuminsoniy qadriyatlar talablari asosida milliy tiklanish yo'lidan rivojlanishga erishish, milliy meros va an'analarni ro'yobga chiqarish, milliy ilmiy-texnikaviy salohiyatni muttasil oshirib borishdan iboratdir. Partiya mafkurasi konservatizmga asoslangan².

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi 2003-yil 19-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tgan. Partiya a'zolarining soni 2011-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 170 ming nafardan ortiq. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga 2004-yilda bo'lib o'tgan saylovlarda partiya ilgari surgan nomzodlardan 41 kishi deputat etib saylangan bo'lsa, 2009-yildagi saylovlarda 53 nafari deputat etib saylandi. Ushbu partiya hozirgi kunda mamlakatimiz parlamentidagi eng yirik fraktsiyani tashkil etadi. Partiyaning nashri – «*XXI asr*» gazetasidir.

¹ www.adolat.uz

² www.mt.uz

Partiyaning maqsadi tadbirkorlar va ishbilarmonlarning kengroq faoliyat yuritishlari uchun yangi imkoniyatlarni yaratish, davlatni boshqarish, jamiyatda shakllanayotgan qarashlarga ta'sir o'tkazish, O'zbekistonning xalqaro obro'sini oshirish, yurt tinchligi va osoyishtaligini saqlash, millatlararo va fuqarolararo ahillik va totuvlikni mustahkamlash ishida faol qatnashishdan iborat. Partiyaning mafkurasi liberal-demokratiyadir¹.

Ushbu partiyalar orasida Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida ko'pchilik o'rinni egallagan. SHu bois bu partiyaning fraktsiyasi parlamentdagi ko'pchilikni tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasining «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonunida Parlamentda ko'pchilikni «o'z dasturiy maqsadli vazifalarining yaqinligidan yoki mosligidan kelib chiqqan holda blok tuziladigan bir nechta siyosiy partiyalar fraktsiyalari va saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan saylangan deputatlar ham tashkil etishi mumkin»², deyilgan. SHunga asoslangan holda 2005-2009-yillarda Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi, «Milliy tiklanish» DP va «Adolat» SDP fraktsiyalari hamkorligida Oliy Majlisning Qonunchilik palatasida Demokratik blok tuzilgan edi. Ammo siyosiy partiyalarning bitta demokratik blokka birlashganligi ularning faoliyatini va mustaqil holda ish yuritishini cheklamaydi.

Qaerdaki konstruktiv raqobat, sog'lom muxolafat bo'lmas ekan, u yerda taraqqiyot bo'lmaydi. Buni dialektikaning «qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni» ham tasdiqlaydi. Albatta, bu qonunni siyosiy partiyalar, ularning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki va faoliyatiga tatbiq etsa bo'ladi. Buning isboti sifatida O'zbekiston Xalq demokratik partiyasining dasturidagi

¹ www.uzlidep.uz

² Ўзбекистон Республикасининг «Давлат бошқарувини янгилаш ва янада демократлаштириш ҳамда мамлакатни модернизация қилишда сиёсий партияларнинг ролини кучайтириш тўғрисида»ги конституциявий қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг ахборотномаси. – 2007. – № 4. – 161-м.

quyidagi jumlani keltirish mumkin: «O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasini o'zining asosiy siyosiy raqibi deb hisoblaydi»¹. Bundan ko'rinadiki, O'zbekistonda siyosiy muxolafat (oppozitsiya) mavjud. Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, «muxolafat har bir demokratik davlatda bo'lishi kerak. Muxolafat mavjudligi demokratiya alomati desak, siyosiy xato qilgan bo'lmaymiz»². «Opozitsiya («muxolafat») deb, o'zining jamiyatni rivojlantirishga oid siyosiy dasturiga, elektoratiga ega bo'lgan, davlat vakillik organlaridagi o'z vakillari orqali rasmiy hokimiyatga ta'sir etuvchi, qonunlar doirasida siyosiy hokimiyat uchun kurash olib boruvchi siyosiy partiyaga aytiladi»³.

Hozirda mamlakatimizda ko'ppartiyaviylik tizimi to'la qaror topgan. Ushbu partiyalar respublikamizdagi siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etmoqda.

SH. Mamadaliyevning fikricha, siyosiy partiyalar quyidagi kontseptual ahamiyatga ega masalalarda o'zining mustaqil fikri va maqsadiga ega bo'lishlari zarur:

– birinchidan, hokimiyatga, davlatga munosabatda. Hokimiyatda yetakchi mavqega ega bo'lish uchun kurash siyosiy partiyalar tarixida sinovdan o'tgan va uzoq asrlik hurlik, demokratiya uchun kurashda sinalgan faoliyat turidir. Bu esa siyosiy partiyalardan davlat va jamiyatni boshqarish, demokratik taraqqiyot yo'llarini ko'ra bilishni taqozo etdi;

– ikkinchidan, siyosiy partiyalar o'tish davri talablarini to'liq ifoda etadigan «davlat barcha islohotlarning bosh tashabbuskori», degan printsipga o'z munosabatini bildirib, nafaqat davlat, xuddi shuningdek, o'zi, ya'ni siyosiy birlashmalar, jamoat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ham ijtimoiy o'zgarishlarning tashabbuskorlari bo'lishi mumkinligi g'oyasini

¹ Ўзбекистон Халқ демократик партиясининг дастури // Ўзбекистонда сиёсий партиялар. – Т., 2007. – Б. 203.

² Каримов И. А. Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби. Т.5. –Т., 1997. – Б.71.

³ Мамадалиев Ш.О. Ўзбекистон сиёсий партиялари: шаклланиш жараёнлари ва ривожланиш истикболлари. – Т., 2004. – Б.43.

ilgari surishlari lozim. Agar ular ushbu printsiptni himoya qilolmasalar, hech qachon taraqqiyparvar g'oyalarning tashabbuskori bo'lolmaydilar¹;

– uchinchidan, ijtimoiy-siyosiy hayot jadal rivojlanib, yangi-yangi muammolarni hal etishni kun tartibiga qo'yayotgan hozirgi paytda siyosatshunoslikni haqiqiy ilm, fan sifatida rivojlantirishga ehtiyoj mavjud;

– to'rtinchidan, siyosiy partiyalarda ichki demokratiya deyarli yo'q. Bahsmunozara ular hayotining mezoniga aylanmagan. Parlamentga saylangan partiya yetakchilari, faollari kelgusi saylovgacha partiya ichki faoliyatini jonlantirishga emas, balki erishgan mandatini, lavozimini saqlab qolishga intiladilar, xolos. Natijada partiya hayoti «amorf» bo'lib qolishga majbur. Demak, partiyalarda ichki demokratiya va hurfiylikni, partiyalararo bahsni, munozarani, o'zini o'zi tanqid qilishni shakllantirish mexanizmlarini yaratish zarur;

– beshinchidan, partiyalarning quyidan tashkil topishini qo'llab-quvvatlash kerak. Bu borada mavjud qonunga qo'shimchalar kiritish talab etiladi;

– oltinchidan, quyi palataga saylanadiganlar uchun saylovlarda ochiq-oshkora qatnashish, o'z huquqlarini himoya qilish, bahs, raqobatlashish imkoniyatlarini beradigan mexanizmlarni yaratish zarur².

Umuman olganda, respublikamizda ko'ppartiyaviylikning shakllanishi – murakkab, serqirra muammo bo'lib, nafaqat mavjud ijtimoiy-siyosiy vaziyatni bilishni, balki respublikamiz va boshqa mamlakatlarning tarixiy tajribasini ham o'rganishni talab qiladi. U ijtimoiy-falsafiy, huquqiy, sotsiologik, iqtisodiy va boshqa ko'plab jihatlarga ega.

SHunday qilib, siyosiy partiyaning bosh vazifasi alohida olingan fuqarolar, ijtimoiy qatlamlar va guruhlar manfaatlarini birlashtirib, ularni siyosiy manfaatlar majmuasi darajasiga ko'tarish, shuningdek, bu uyg'unlashgan manfaatlarining ularning hammasi uchun bir xilda ahamiyat kasb etishini ta'minlay olishdir.

¹Мамадалиев Ш. Ўзбекистон сиёсий партиялари // Адолат. — 1998. 5 июнь.

² Мамадалиев Ш. О. Халқ ҳокимияти. 175–176-б.

2. Siyosiy partiya tushunchasi, funktsiyalari, turlari va huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasida demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda siyosiy partiyalarning o'rni muhimdir.

Hozirgi zamon ilmiy adabiyotida «partiya» tushunchasiga ko'plab ta'riflar berilgan. Quyida ularning asosiylarigagina to'xtalib o'tamiz.

Partiya – lotincha «partio» so'zidan olingan bo'lib, «bo'lak, bo'laman, ajrataman» degan ma'nolarni anglatadi, ya'ni butunning bir bo'lagi, jamiyatning bir bo'lagi degan tushunchalarni beradi. Demak, partiya deganda, «g'oyaviy jihatdan maslakdosh, manfaatlari mushtarak bo'lgan, shuningdek, muayyan ishni bajarish uchun ajratilgan kishilar guruhi»¹ tushunilishi mumkin.

Liberal ta'rifga ko'ra, partiya kishilarning mafkuraviy birlashmasidir.

Sinfiy (markscha) ta'rifga ko'ra, partiya jamiyatning ma'lum bir sinf manfaatlarini o'zida ifodalovchi ongli, uyushgan qismidir².

Siyosatshunos olim SH. Mamadalievning fikricha: «Partiya kishilarni ma'lum bir g'oya atrofida ixtiyoriy ravishda birlashtirgan, o'z g'oyasini hayotga tatbiq etish maqsadida hokimiyat uchun kurash olib boruvchi, o'zining dasturi, nizomi, tarkibiy tuzilishiga ega bo'lgan siyosiy tashkilotdir»³.

R. Douz siyosiy partiya «jamoat tashkilotlarining eng siyosiysi»⁴, deb aytgan edi. XVIII asrning mashhur ingliz siyosiy arbobi va faylasufi E. Berk partiyani quyidagicha ta'riflagan: «Partiya milliy manfaatlar uchun hamkorlik qilish maqsadlarida uyushgan, ba'zi bir printsiplar yuzasidan bir xil qarashlarga ega kishilarning tashkilotidir». Nemis tadqiqotchisi V. Xasbax esa partiyani quyidagicha tushungan: «Partiya bir xil siyosiy qarashlar va maqsadlarga ega bo'lgan, o'z shaxsiy manfaatlarini qondirish maqsadlarida siyosiy hokimiyatni egallashga intilayotgan kishilar ittifoqidir».

Hozirgi davr ruhiga eng yaqin ta'rifni M. Veber bergan edi: «Partiyalar a'zolikka qabul qilishning ixtiyoriyligiga asoslangan, o'z oldiga faol

¹ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т.6. — Т., 2003. — 698-б.

² Мамадалиев Ш. Халқ ҳокимиятчилиги. — Т., 2003. — 33-б.

³ Ўша жойда.

⁴ Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: сиёсий партиялар, мафкуралар, маданиятлар. — Т., 1998. — 30–31-б.

a'zolarining moddiy foyda yoki shaxsiy imtiyozlar olishi uchun ma'naviy va moddiy sharoitlar yaratish hamda o'z rahbariyati uchun siyosiy hokimiyatni egallash maqsadini qo'ygan jamoat tashkilotlaridir»¹.

Taniqli siyosatshunos S. Eldersveld partiyani «demokratiya davri saylovlaridagi kurashlar, ijtimoiy manfaatlarni safarbar qilish va mafkuraviy nuqtai nazarlarni himoya qilish vositasida siyosiy hokimiyatni egallash uchun raqobatlashadigan, shu tarzda fuqarolarni siyosiy tizim bilan bog'laydigan guruhlardir. Partiya ijtimoiy va iqtisodiy manfaatlarni bevosita siyosiy hokimiyatga qaratish yoki aylantirishga intilayotgan strukturaviy tizimdir. U siyosiy tan olish, ifoda etish va nazorat qilishga intilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlar majmuasidan tashkil topadi»², deb ta'riflagan edi.

Siyosiy partiya – o'zining doimiy tarkibi va tizimiga ega bo'lgan, mustaqil jamoat birlashmasi bo'lib o'z a'zolarining xohish-irodasini ifodalaydi. Siyosiy partiyalarning huquqiy layoqatlari va faoliyatlari tegishli qonun hujjatlarida belgilab qo'yiladi³.

Siyosiy partiya – ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini ifodalovchi, ularning eng faol vakillarini birlashtiruvchi siyosiy tashkilot⁴.

O'zbekiston Respublikasining «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi 1996 yil 26 dekabr qonunida siyosiy partiyaga quyidagicha ta'rif berilgan: «Siyosiy partiya O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko'ngilli birlashmasidir»⁵.

Siyosiy partiyalar boshqa siyosiy klublardan shunisi bilan farqlanadiki, ular o'z saflariga mumkin qadar ko'proq a'zolari jalb etishga, siyosiy kurashning

¹Гаджиев К. С. Политическая наука. С. 135. / Цитата манбаи: Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: сиёсий партиялар, мафкуралар, маданиятлар. — Т., 1998. Ўша жойда.

²Eldersveld S. Political Parties in American Society. N. Y., 1982. P. 11; Political Parties. A Behavioral Analysis. Chicago, 1964. — P. 6. / Цитата манбаи: Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: сиёсий партиялар, мафкуралар, маданиятлар. — Т., 1998. Ўша жойда.

³Юридик энциклопедия. Т., 2001. 392-б.

⁴Хамидова К. Т. Сайловлар ва сиёсий партиялар фаолиятини молиялаштириш. — Т., 2004. — 5-б.

⁵Ўзбекистон Республикасининг «Сиёсий партиялар тўғрисида»ги 1996 йил 26 декабрь қонуни.

qonuniy usullaridan keng foydalanishga hamda faqat saylovlar davri bilan cheklanmagan faollikka intiladilar¹.

O'zbekiston Milliy entsiklopediyasida partiyaga: «Ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifodalovchi, ularning eng faol vakillarini birlashtiruvchi siyosiy tashkilotlar»², – degan ta'rif berilgan.

O'zbekiston Respublikasining «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi qonunining 1-moddasida ta'riflanganidek, «siyosiy partiya O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko'ngilli birlashmasidir»³.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Islom Karimov siyosiy partiyalarga: «*Partiya degani – bu mansab uchun, lavozim uchun kurash emas, balki muayyan g'oya uchun, uning jamiyatda ustuvor bo'lishi va ro'yobga chiqishi uchun kurash demakdir*»⁴, – deya tavsif bergan.

Yuqoridagi ta'rif va tavsiflardagi umumiy jihatlarni inobatga olib, siyosiy partiyalarga quyidagicha ta'rif berish mumkin: «siyosiy partiyalar – bu kishilarni ma'lum bir g'oya atrofida ixtiyoriy ravishda birlashtirgan, o'z g'oyasini hayotga tatbiq etish maqsadida hokimiyat uchun kurash olib boruvchi, o'zining dasturi, nizomi, tarkibiy tuzilishiga ega bo'lgan siyosiy tashkilotdir»⁵.

Hokimiyat esa har qanday partiyaning asosiy maqsadi. Partiya qaysi ijtimoiy guruhlarining tashabbusi bilan yuzaga kelgan bo'lsa, aynan shu guruhlarining manfaatlarini amalga oshirish vositasi hisoblanadi. Partiya o'z oldiga qanday maqsadlarni qo'ygan bo'lsa ham, ularga hokimiyat uchun kurash, o'z hukumatini shakllantirish yoki koalitsion hukumat tarkibiga o'z vakillarini kiritish orqali erishadi. Hukmronlikni qo'lga kiritgan partiya davlatning butun

¹Жумаев О. Сиёсий партияларнинг сайлов жараёнидаги этикаси. — Т.: ТДЮИ, 2004. —12-б.

² Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т. 7. – Т., 2004. – Б. 607.

³ Ўзбекистон Республикасининг «Сиёсий партиялар тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 1997. – № 5. –12-м.

⁴Каримов И. А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т. 2. –Т., 1996. – Б. 350–351.

⁵Мамадалиев Ш.О. Сиёсий ҳокимият ва манфаат. –Т., 1996. – Б.47.

qudratidan o'ziga vakolat bergan ijtimoiy kuchlarning manfaatlari yo'lida foydalanishga intiladi.

Partiya boshqa jamoat tashkilotlari va harakatlardan aynan shunisi bilan farq qiladi. Jamoat tashkilotlari va turli harakatlar ham xuddi partiyalar singari siyosiy hayotda faol ishtirok etadilar, lekin o'z oldiga davlatda siyosiy hokimiyatni qo'lga kiritish va undan foydalanish maqsadini qo'ymaydi.

Partiyalar bilan ijtimoiy harakatlar o'rtasidagi tub farq shundan iboratki, partiyalar davlat hokimiyatini amalga oshirishda ishtirok etish uchun kurashadilar, ijtimoiy harakatlar esa unda bevosita ishtirok etishga da'vo qilmaydilar va shu bilan bog'liq majburiyatlarni ham o'z zimmalariga olmaydilar.

Siyosiy partiyalarning *asosiy belgilari* quyidagilar: siyosiy hayotda faol ishtirok etish, a'zolik va muayyan ijtimoiy negizning mavjudligi, siyosiy dastur va nizomga egalik, partiyaga birlashgan kishilarning umumiy manfaatlar va bir-biriga yaqin bo'lgan mafkuraviy qarashlarga egaligi, bir yoki bir necha liderlarning mavjudligi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 60-moddasida belgilanganidek, «siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarining siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar. Siyosiy partiyalar o'z faoliyatlarini moliyaviy ta'minlash manbalari haqida Oliy Majlisga yoki u vakil qilgan organga belgilangan tartibda oshkora hisobotlar berib turadilar»¹. Siyosiy partiyalar o'z faoliyatlarini amalga oshirishda partiya a'zolarining siyosiy xohish va irodalarini ifodalaydilar, davlat hokimiyati va boshqaruv idoralarini tuzishda ishtirok etadilar.

Siyosatshunos olim M. Qirg'izboev o'z ilmiy tadqiqotlarida chet el olimlarining fikrlarini o'rgangan holda, AQSH siyosatshunosi J. La Palombaraning partiyani tashkil qilish borasidagi to'rt belgisi borligini ko'rsatadi:

¹Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Т., 2003. — 60-модда.

1) u yoki bu mafkura yoxud dunyoqarash tashuvchisi hamda dunyo va insonni bilish hamda anglashning o'z yo'liga ega bo'lishi;

2) siyosatning barcha darajalarida, ya'ni mahalliy darajadan to xalqaro bosqichlar bo'g'inlarigacha faoliyat ko'rsatayotgan a'zolarining birlashmasi, tashkiloti ekanligi;

3) maqsadi hokimiyatni egallash va uni amalga oshirish ekanligi;

4) unga ovoz berishdan tortib, to mazkur partiyaga faol a'zo bo'lishigacha bo'lgan jarayonlarda xalq tomonidan qo'llab-quvvatlanishga erishish uchun harakat qilishi.

Sotsiologik jihatdan yondashganda, partiyalarning eng asosiy ahamiyati kishilarning bir-birlari bilan birlashishi, ular manfaat va ehtiyojlarining qondirilishi, shuningdek inson huquqlarining teng huquqli sub'ekti sifatida siyosiy tizimdan o'ziga munosib joy olishidir¹.

SH. Mamadaliyevning fikricha, har qanday siyosiy partiya o'zining quyidagi asosiy belgilariga ega bo'ladi:

- 1) g'oyaning mavjudligi.
- 2) ixtiyoriylik, ochiqlik.
- 3) dastur va nizomining mavjudligi.
- 4) hokimiyat uchun kurash.
- 5) o'z matbuotiga, nashriga egalik xususiyati.
- 6) o'zining nomiga ega bo'lish xususiyati.
- 7) boshqaruv tizimiga egalik xususiyati.
- 8) partiya davlatga qarashli bo'lmagan tashkilotdir².

Zamonaviy siyosiy partiyalar bir qator vazifalarni bajaradi. Ular, avvalambor, shaxs, jamiyat bilan davlat o'rtasidagi aloqani amalga oshiradi. Partiya muayyan ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini aniqlab, ularni ma'lum bir

¹Киргизбоев М. Фуқаролик жамияти: сиёсий партиялар, мафкуралар, маданиятлар. — Т., 1998. — 31-б.

²Мамадалиев Ш. Ўзбекистон сиёсий партиялари: шаклланиш жараёнлари ва ривожланиш истикболлари. — Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2004. —34-б.

shaklda davlat boshqaruv organlariga yetkazish orqali vakillik vazifasini bajaradi¹.

Hozirgi zamon siyosiy partiyalarining xususiyatlari ularning o'ziga xos funktsiyalarini, ya'ni vazifalarini keltirib chiqaradi. Klaus fon Boyme siyosiy partiyaning to'rtta funktsiyasini ajratib ko'rsatadi:

- 1) maqsadlarni aniqlash;
- 2) ijtimoiy manfaatlarni kuchaytirish va ifodalash;
- 3) tizim miqyosida, ayniqsa, saylovlarda jamoatchilikni safarbar etish va ularning ijtimoiylashuvini ta'minlash;
- 4) elitani tanlash va hukumatni shakllantirish².

Ba'zi siyosatshunoslar partiyaning «konkret funktsiyalari» doirasini yanada kengaytirib, ularning sonini 9 taga yetkazadilar. Masalan, ular partiyaning quyidagi funktsiyalarini sanab o'tadilar: millatning hayotiy manfaatlarini ifodalovchi jamoatchilik fikrini shakllantirish; saylovlar jarayonida saylovchilarni partiya nomzodlariga ovoz berish uchun safarbar etish; «jamoatchilik fikrini tarbiyalash» va «siyosiy ijtimoiylashuvni amalga oshirish jarayonida umumta'lim rolini» yanada faolroq bajarish, «parlament va butun mamlakat o'rtasidagi siyosiy aloqalarning uzluksizligini ta'minlash»; boshqa siyosiy institutlar bilan birgalikda davlat va ijtimoiy boshqaruv mexanizmini shakllantirish, hukumat organlarining barqarorligini ta'minlash; hukumat tarkibining davomli almashib turishi uchun ikki va ko'p partiyali tizimlar vositasida qulay shart-sharoitlar yaratish va hokazo. Ba'zan partiyalarning yana boshqa turli funktsiyalari to'g'risida ham fikr yuritiladi³.

Yana boshqa olimlarning fikricha, hozirgi zamon siyosiy partiyalarining quyidagi asosiy funktsiyalari bor: ijtimoiy; siyosiy; tarbiyaviy; mafkuraviy; metodologik; gnoseologik⁴.

¹Жумаев О. Сиёсий партияларнинг сайлов жараёнидаги этикаси. — Т., 2004. — 3–4-б.

²Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: сиёсий партиялар, мафкуралар, маданиятлар. — Т., 1998. — 35-б.

³Boyme Klaus von. Political Parties Western Democracies. — Aldershot, 1985. — p. 13. / Цитата манбаи. Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: сиёсий партиялар, мафкуралар, маданиятлар. — Т., 1998. — 35–36-б.

⁴Мамадалиев Ш. Халқ ҳокимиятчилиги. — Т., 2003. — 44-б.

Siyosiy partiyalarni turlarga ajratish murakkab va ziddiyatli jarayon bo'lib, nisbiy xususiyatga ega. SH. Mamadaliev siyosiy partiyalarni g'oyaviy jihatdan *pragmatik, kommunistik, milliy va diniy* partiyalarga; hokimiyatga bo'lgan munosabatiga ko'ra, *hokimiyat partiyasi* (hokimiyat tepasidagi partiya), *oppozitsion* (muxolafatdagi), *nooppozitsion* (muxolafatda bo'lmagan) partiyalarga; hokimiyat uchun kurash olib borish shakliga ko'ra, *parlament* va *avangard* partiyalarga ajratadi¹.

Ma'lumki, barcha ijtimoiy munosabatlar qonun vositasida tartibga solinadi. Mamlakatimizda siyosiy partiyalar ham ijtimoiy munosabatlarning sub'ekti sifatida ishtirok etadi. Siyosiy partiyalarning faoliyati O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Jamoat birlashmalari to'g'risida», «Siyosiy partiyalar to'g'risida», «Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida»gi qonunlari hamda «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonuni asosida tashkil etiladi. Ushbu qonunlar mamlakatda ko'ppartiyaviylik tizimi shakllanishining huquqiy asoslari hisoblanadi. O'zbekistonda bugun to'rtta siyosiy partiya tegishli huquqiy hujjatlar asosida o'z faoliyatini olib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasining Oliy Kengashi 1991-yil 15-fevralda «Jamoat birlashmalari to'g'risida»gi qonunni qabul qildi. Ushbu qonun respublikadagi jamoat birlashmalari faoliyatini tubdan isloh qilishga, ularning yakkahokim mafkuradan poklanishiga, shuningdek jamoat birlashmalari, tuzilmalarini davlat va hukumat tizimidan ajratishga huquqiy shart-sharoitlar yaratadi. Mazkur qonunda respublika ijtimoiy-siyosiy hayotida birinchi marta jamoat birlashmalarining maqsadlari xalqaro va demokratik mezonlar asosida ta'riflab berildi: «Jamoat birlashmalari fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar hamda erkinliklarni ro'yobga chiqarish va himoya qilish, fuqarolar

¹Мамадалиев Ш. Халқ ҳокимиятчилиги. — Т., 2003. — 55-б.

faolligi va tashabbuskorligini, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ularning ishtirok etishini rivojlantirish»¹ maqsadida tuziladi.

Demak, mamlakatda birinchi marta jamoat birlashmalarining mustaqilligi, ularning davlat va hukumatdan alohida faoliyat yurituvchi sub'ekt ekanligi tan olindi. Qonunda davlat idoralari va mansabdor shaxslarning jamoat birlashmalari faoliyatiga aralashishlari, shuningdek jamoat birlashmalarining davlat idoralari va mansabdor shaxslarning faoliyatiga aralashishi mumkin emasligi mustahkamlandi. Bu qonun mamlakatimizda ilk vujudga kelgan siyosiy partiyalar faoliyatini ham tartibga solib turdi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57-moddasida: «...milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarni hamda jamoat birlashmalarini tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi»².

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 60-moddasida: «Siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarining siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar»³, – deyilgan. Haqiqatan ham Asosiy qonunning ushbu moddasida ta'kidlanganidek, siyosiy partiyalar hokimiyatning yuzaga kelishida asosiy rol ni bajaradi. Ular ko'rsatgan nomzodlar xalq tomonidan saylanadi. Bu esa siyosiy partiyalar xalq hokimiyatchiligini yuzaga keltirishda asosiy bo'g'in ekanligining isbotidir.

O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 26-dekabrda qabul qilingan «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi qonuni mavjud va tashkil bo'layotgan siyosiy partiyalarning faoliyatini tartibga solishda dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi qonunining 4-moddasi siyosiy partiyaga a'zo bo'lish haqidadir. Unga binoan, O'zbekiston Respublikasining fuqarosi faqat bitta siyosiy partiyaga a'zo bo'lishi mumkin, ma'lum bir partiyaga a'zoligiga ko'ra, unga nisbatan cheklash, imtiyozlar yoxud ustunliklar berilmaydi. Bundan tashqari, siyosiy partiyaga kimlar a'zo bo'lib kirishi mumkinligi va kimlar a'zo bo'la olmasligi haqidagi

¹ Ўзбекистоннинг янги қонунлари. 4-сон. – Т., 1993. – Б.155.

² Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Т., 2010. – Б.12.

³ Ўша жойда.

qoida mavjud. 4-moddaning 3-qismida: «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti respublika barcha fuqarolarining huquq va erkinliklariga rioya qilinishining kafili sifatida prezidentlik vakolatlarini bajarish muddati davomida siyosiy partiyaga a'zolikni yoki unda ishtirok etishni to'xtatib turish yoxud butunlay to'xtatishi shart»¹, – deyilgan. Demak, agar Prezident ma'lum bir siyosiy partiyaga a'zo bo'lsa, unda mamlakat barcha fuqarolari konstitutsiyaviy huquqlari amalga oshirilishining kafili bo'lmay qoladi. U qoidaga ko'ra, qaysi siyosiy partiyaning a'zosi bo'lsa, o'sha partiyaning a'zolariga yoki o'sha partiyaning o'ziga ko'proq «yon bosadi» yoki uning manfaatlarini ko'zlab ish tutadi. SHuning uchun ham qonunda Prezidentning siyosiy partiyaga a'zolikni to'xtatib turishi yoki butunlay to'xtatishi belgilab qo'yilgan. Qonunning 4-moddasi 4-qismida sudyalari, prokurorlar va prokuratura tergovchilari, ichki ishlar idoralari, Milliy xavfsizlik xizmatining xodimlari, harbiy xizmatchilar, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ham siyosiy partiyaga a'zo bo'la olmasligi ko'rsatib o'tilgan. CHunki Konstitutsiya va tegishli qonun va normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq, harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish idoralari xizmatchilari ma'lum bir guruh huquqi va manfaatlarini ifodalamasdan, umumxalq va umumdavlat manfaat va maqsadlarini ko'zlab faoliyat yuritadilar. SHu boisdan huquq-tartibot idoralarining xodimlari va harbiy xizmatchilar siyosiy partiyalarning a'zolari bo'lmaydilar².

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonuni mavjud siyosiy partiyalarning ustav va dasturlari, davlat hokimiyatini shakllantirish jarayonidagi ishtiroki, shuningdek ularning faoliyatini tartibga solishda huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, respublikada

¹ Ўзбекистон Республикасининг «Сиёсий партиялар тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 1997. – № 2. –36-м.

² Ўша жойда.

huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida siyosiy partiyalarning faolligi uchun keng huquqiy zamin yaratilgan.

1-bob bo'yicha xulosa

Siyosiy partiyaning bosh vazifasi alohida olingan fuqarolar, ijtimoiy qatlamlar va guruhlar manfaatlarini birlashtirib, ularni siyosiy manfaatlar majmuasi darajasiga ko'tarish, shuningdek, bu uyg'unlashgan manfaatlarning ularning hammasi uchun bir xilda ahamiyat kasb etishini ta'minlay olishdir.

Hozirgi davrda barcha demokratik mamlakatlar va fuqarolik jamiyatlaridagi siyosiy partiyalar mavjud konstitutsiyaviy huquq me'yorlarini saqlagan, shuningdek, fuqarolarning huquq va erkinliklariga daxl qilmagan holda o'z mamlakatlarida uzoq davrlar mobaynida shakllangan siyosiy jarayonlar va munosabatlar taomillari doirasida muqobil siyosiy yo'llarni ifoda etuvchi vosita sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Siyosiy partiyalar va ijtimoiy harakatlar xalq bilan hokimiyat o'rtasida asosiy bog'lovchi bo'g'in bo'lgan demokratik institutga tezroq aylanishi g'oyat muhimdir. Jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy muammolariga fuqarolar jonli qiziqish bilan qaraganlarida, ular u yoki bu partiya yoxud harakatning faoliyatida madaniyatli ishtirok etganlaridagina buni amalga oshirish mumkin bo'ladi¹.

Bugungi kunda mamlakat siyosiy hayotining barcha sohalarini, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirishda, fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy faolligini kuchaytirish va insonning o'z qobiliyatini to'la ro'yobga chiqarishi uchun tegishli shart-sharoit yaratishda, odamlarning o'z xohish-irodasini erkin ifoda etish, o'z manfaatlarini ro'yobga chiqarish va himoya qilish huquqini rivojlantirish va amalda namoyon qilishda, jamiyatimizda mavjud bo'lgan turli manfaatlar, qarama-qarshi kuchlar va harakatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydigan samarali mexanizmni shakllantirishda ko'ppartiyaviylik tizimi muhim rol o'ynaydi.

¹ Каримов И. А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т. 6. – Т.: Ўзбекистон, 1998. – 152–153-б.

II BOB. O'ZBEKISTON SIYOSIY PARTIYALARINING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI O'RNI

1. Siyosiy partiyalar va saylov qonunchiligi

Ijtimoiy-siyosiy, ilmiy muloqotda «Saylov demokratiya ko'zgusi» deya e'tirof etiladi. Darxaqiqat, saylovlarning adolatli tashkil etilishi va amalga oshirilishi, fuqarolarning mazkur siyosiy jarayonda faol ishtirok etishlari, o'z vakillariga erkin, qonuniy tarzda ovoz berishlari, saylovlar natijasida parlamentda xamda vakillik organlarida mo'nosib nomzodlarning mandatga ega bo'lishlari mamlakat xududida demokratiyaning shakllanganligini, fuqarolarning siyosiy-xuquqiy ongi, madaniyatining yuksakligini ifoda etadi.

Insoniyat tomonidan yaratilgan eng buyuk kashfiyotlardan biri – saylov. Saylovlar demokratiyaning muhim tarkibiy qismi bo'lib, ular fuqarolarning siyosiy xohish-irodalarini ifoda etib, hokimiyat va boshqaruv organlarini shakllantirishning mezoni hisoblanadi. «Saylovlar – bu mamlakatimizda amalda bo'lgan huquqiy normalarning nechog'lik demokratik ruhda ekanini namoyon etadigan, demokratik huquqiy davlatning uzviy belgisi, xalqning o'z xohish-irodasini erkin ifoda etishining, fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokining asosiy shakli bo'lib, o'ta muhim va hal qiluvchi ahamiyatga ega masaladir»¹.

Insonlar esa tarixiy taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida oltindan foydalanishni o'rganib olganidek, saylovlardan foydalanishni ham ma'lum bosqichda o'zlashtirib olishdi. Agar saylovlardan foydalanish qachondan boshlangan, ushbu savolga hech ikkilanmasdan miloddan avvalgi VI–IV asrlarda Afina, Rim va Gretsiyada, Markaziy Osiyoda esa Davan davlati davrida deb aytishga haqlimiz. Ushbu fikrimizga asos Aristotelning «Siyosat», «Mantiq», Platonning «Davlat» asarlari hamda Davan davlati haqidagi tarixiy manbalardir².

¹Каримов И. А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Т., 2010. – Б.35.

² Мамадалиев Ш.О., Тожибоев М.Т., Бердикулов С.Н. ва б. Ўзбекистонда демократик жамият куриш назарияси ва амалиёти. – Т.: ЎзР ИИБ Академияси, 2011. – 128-б.

Ko'p yillik ilmiy izlanishlar natijasida frantsuz olimlari J.J. Russo, Sh. Monteskyo, ingliz faylasuflari T. Gobbs, J. Lokk kabilarning «Ijtimoiy shartnoma», «Qonun ustuvorligi», «Xalq suvereniteti», «Davlat hokimiyatining uchta: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi» nazariyalari hamda saylov tizimi to'g'risidagi ta'limotlar yuzaga keldi. J.J. Russo shunday deb yozadi: «Xalq erkinligini ta'minlashning eng muhim yagona yo'li bu – saylovdir». Ushbu olimlar avvalgilaridan farqli o'laroq, demokratiya, saylov to'g'risidagi bilimlarini tizimlashtirib, saylov to'g'risidagi nazariyalarni yaratdilar¹.

O'zbekistonda demokratiya, saylov bir mohiyatni, ya'ni xalq irodasini ifodalashga qaratilgan siyosiy-ijtimoiy hodisalardir. I.A.Karimov ta'kidlaganidek «Saylov – demokratiya degani. Demokratiya – bu saylov degani»². Ushbu shioriy fikrdan ham ko'rinadiki, demokratiyaning mohiyatini saylov orqali xalq irodasini ifodalash (aniqlash) yotadi. Xalq irodasi esa mavhum tushuncha emas, u jamiyatdagi barcha sotsial guruhlar manfaatlarining in'ikosidir. Demak, saylovda xalq irodasiga mos keladigan rivojlanish dasturi va uni ijrosini ta'minlaydigan xalq vakillari (deputat, senator, Prezident) tanlanadi. Bu esa o'z vaqtida demokratiya taraqqiyotini ta'minlaydi.

Demokratik saylovlarning quyidagi tamoyillari mavjud: a) umumxalq saylovlari; b) tenglik; v) saylovlarda yashirin ovoz berish erkinligi; g) to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) ovoz berish.

Mustaqil O'zbekistonda majoritar saylov tizimi amal qiladi. Caylov kuni o'n sakkiz yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jinsi, irqiy va milliy mansubligi, tili, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqei, ma'lumoti, mashg'ulotining turi va xususiyatidan qat'iy nazar, teng saylov huquqiga egadirlar. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti etib, mamlakatda muqim 10 yil yashayotgan 35 yoshga to'lgan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputati va senatori etib, mamlakatda 5

¹ Избирательные системы и наблюдение за выборами. – М., 1995. – С.5.

² Каримов И. А. Ўзбекистон демократик тараққиётнинг янги bosқичида. – Т., 2005. – Б.13.

yil muqim yashab kelayotgan 25 yoshga to'lgan, xalq deputatlari mahalliy kengashlariga 21 yoshga to'lgan O'zbekiston fuqarolari saylanishi mumkin (qonunda ko'zlangan cheklovlar bundan mustasno). Ayrim mamlakatlarning saylov qonunchiligida etnik va milliy cheklovlar mavjud. Masalan, AQSH Prezidentligiga nomzod albatta AQSHda tug'ilgan bo'lishi yoki Germaniya kantsleri nemis millatiga mansub bo'lishi shart. Latviya, Litva va Estoniya kabi mamlakatlarda ham shunga o'xshash cheklovlar mavjud. Bundan ko'rinadiki, O'zbekiston saylov tizimi ayrim rivojlangan davlatlar saylov tizimidan afzal jihatlarga ega¹.

O'zbekiston saylov tizimi sub'ektlariga Markaziy, okrug va uchastka saylov komissiyalari, siyosiy partiyalar va saylovchilar kiradi. Markaziy saylov komissiyasi a'zolari Oliy Majlis tomonidan kamida o'n besh nafar a'zodan iborat tarkibda saylanadi. Markaziy saylov komissiyasi okrug saylov komissiyalarini, okrug saylov komissiyalari uchastka saylov komissiyalarini shakllantiradi. Saylov komissiyalari o'z faoliyatida qonuniylik, kollegiallik, oshkoralik, mustaqillik va adolatlik printsiplariga amal qiladi. Saylov komissiyalari ijro etuvchi, qonun chiqaruvchi yoki sud hokimiyati tarkibiga kirmaydi va ularga bo'ysunmaydi. U o'z faoliyatida mustaqildir. Saylovlarni tashkil etish va o'tkazish, deputatlarni ro'yxatga olish huquqi – saylov komissiyalariga; saylovoldi dasturlarini saylovchilarga taqdim etish va deputatlikka nomzodlar ko'rsatish huquqi siyosiy partiyalarga; saylovoldi dasturlarining eng munosibini tanlash va deputatlarni saylash huquqi saylovchilarga berilgan.

Referendum lotincha «referendum» so'zidan olingan bo'lib, «e'lon qilinishi lozim xabar» degan ma'noni anglatadi². Referendum va saylov xalq irodasini ifoda etishning oliy shaklidir. Demokratik rejimda xalq davlat hokimiyatiga egalik huquqini saylov va referendum orqali amalga oshiradi. Xalq saylov orqali davlat hokimiyati organlarini bevosita yoki bilvosita shakllantirish,

¹Мамадалиев Ш.О., Тожибоев М.Т., Бердикулов С.Н. ва б. Ўзбекистонда демократик жамият куриш назарияси ва амалиёти. – Т.: ЎЗР ИИВ Академияси, 2011. – 139-б.

² Мустақиллик: изоҳли илмий-оммабоп луғат. –Т., 2000. – 188-б.

referendum orqali davlat va jamiyat hayotiga daxldor masalalar bo'yicha qaror qabul qiladi. Saylov natijasida davlat organlari – Prezident, Parlament, xalq deputatlari mahalliy kengashlari saylansa, referendum natijasida xalq qarori qabul qilinadi.

Referendumni inkor etuvchi davlatlar demokratik davlatlar tarkibiga kirmaydi. Demokratik davlatning muhim belgilaridan biri bu referendumni xalqning oliy qarori sifatida e'tirof etilishidir. O'zbekiston – demokratik davlat. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 9-moddasida «Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiy ovozga (referendumga) qo'yiladi...»¹ degan qoida mustahkamlab qo'yilgan. Referendum o'tkazish tartibi esa O'zbekiston Respublikasining «Referendum to'g'risida»gi Qonunida ifoda etilgan. Ushbu qonunda Referendumga quyidagicha ta'rif berilgan «O'zbekiston Respublikasining referendumi (bundan buyon matnda referendum deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasining qonunlarini va boshqa qarorlarni qabul qilish maqsadlarida jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari yuzasidan fuqarolarning umumxalq ovoz berishidir. Referendum saylovlar bilan bir qatorda xalq irodasining bevosita ifodasidir. Referendumda qabul qilingan qarorlar oliy yuridik kuchga ega bo'ladi va faqat referendum yo'li bilan bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin. Referendum O'zbekiston Respublikasining butun hududida o'tkaziladi»².

O'zbekiston Respublikasida referendum o'tkazish tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti chiqishi mumkin³.

Hozirga qadar mamlakatimizda uch marotaba referendum o'tkazilgan. Birinchi marta 1991-yil 29-dekabrda o'tkazilgan referendumda «Siz Oliy Kengash tomonidan O'zbekiston Respublikasining mustaqil davlat deb e'lon

¹ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т., 2010. – Б.5.

² Ўзбекистон Республикасининг 2001 йил 30 августдаги «Референдум тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2001. – № 9-10. – 176-м.

³ Ўзбекистон Республикасининг 2001 йил 30 августдаги «Референдум тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2001. – № 9-10. – 176-м.

qilinishini ma'qullaysizmi?» degan savol qo'yilgan edi. Unda O'zbekiston xalqining 98,2 % mustaqillikni yoqlab ovoz bergan. 1995-yil 24-fevralda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi referendum o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilgan. Qarorda quyidagi masalalar ko'rsatilgan:

1) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari muddatini uzaytirish bo'yicha 1995-yil 26-mart, yakshanba kuni O'zbekiston Respublikasida referendum o'tkazilishi;

2) referendumda ovoz berish byulletenlariga «Siz O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vakolat muddatining 1997-yildan 2000-yilgacha uzaytirilishiga rozimisiz?», degan savolni kiritish;

O'zbekiston Respublikasida Oliy Majlis tashabbusi bilan 1995-yil 26-mart kuni o'tkazilgan Prezident vakolat muddatini uzaytirish to'g'risidagi umumxalq referendumida fuqarolarning ko'pchiligi Islom Karimovning vakolat muddatini 2000-yilgacha uzaytirishni ma'qulladilar¹.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikkinchi chaqiriq yettinchi sessiyasida (2001-yil 6-dekabr) referendum o'tkazish to'g'risida qaror qabul qildi. 2002-yil 27-yanvarda bo'lib o'tgan referendumda:

1) «Siz kelgusi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi parlamenti ikki palatali qilib saylanishiga rozimisiz?»;

2) «Siz O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy vakolat muddatini besh yildan yetti yillik qilib o'zgartirishga rozimisiz?», degan savollar kiritildi².

O'tkazilgan referendumda xalqimiz ijobiy fikrlarni bildirgan va unda ijobiy qaror qabul qilingan. Xulosa qilib aytganda, referendum davlatning muhim masalalarini hal qilishda xalq qaroridir. Referendum – xalq irodasining oliy shaklidir. O'tkazilgan saylov va referendumda xalqni o'ziga bo'lgan ishonchi ortdi, uning siyosiy-huquqiy madaniyati ijtimoiy ongi yuksaldi. Uning davlat hokimiyatiga bo'lgan ishonchi ortib, buyuk kelajak sari intilmoqda.

¹Халилов Э. Х. Ўзбекистон Республикасининг қонун чиқарувчи олий органи: сохта вакилликдан ҳақиқий парламентаризмга қадар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – Б. 86.

²Мамадалиев Ш.О., Тожибоев М.Т., Бердикулов С.Н. ва б. Ўзбекистонда демократик жамият куриш назарияси ва амалиёти. – Т.: ЎЗР ИИВ Академияси, 2011. – 132-б.

Umumxalq saylovlari orqali qonun chiqaruvchi organlarni shakllantirish demokratik huquqiy davlatning eng muhim belgisidir. Saylov – xalq o'z hokimiyati va xohish-irodasini to'g'ridan-to'g'ri ro'yobga chiqarishning oliy ifodasi, davlat hokimiyati organlarini demokratik tarzda tashkil etishning negizi hisoblanuvchi ulkan ijtimoiy-siyosiy tadbir.

O'zbekistonda saylovlar umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri va ko'ppartiyaviylik asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bu demokratik davlatning asosiy shartlaridan biridir. Ko'ppartiyaviylik asosida saylovlar o'tkazish quyidagilarni bildiradi: huquqiy jihatdan ro'yxatga olingan barcha siyosiy partiyalarning saylov kompaniyasida ishtirok etishi; konstitutsiya va qonun talablari doirasida o'z nomzodlarini Oliy Majlis deputatligiga ko'rsatish huquqi va kafolatli shart-sharoitini yaratish; siyosiy partiyalarning barcha darajalardagi saylov komissiyalarining ishida qatnashish huquqi va kafolatli shart-sharoit yaratish; Oliy sudga, zarur hollarda esa Konstitutsiyaviy sudga, Oliy Majlisga saylovlar haqidagi Qonunning buzilishi faktlari ustidan shikoyat qilish huquqidir¹.

Saylovlarning demokratik kechishi ko'p jihatdan saylov tizimiga bog'liq. O'zbekistonda avvalgi nodemokratik tizimdan demokratik saylovlar tizimiga o'tish oson bo'lmadi. Bu jarayon ma'lum vaqt o'tishinigina emas, balki jiddiy tayyorgarlikni ham taqozo etdi. Maqsadga erishish uchun avvalo, mutlaqo yangi qonunchilik bazasi talab etilardi. Sovet davrida esa bunday shart-sharoitlarni yaratishning iloji yo'q edi. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin ko'ppartiyaviylik asosida haqiqiy demokratik saylovlar o'tkazish uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi².

1991 yilning 18 noyabridayoq Oliy Kengash «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi Qonunni qabul qilgan bo'lib, unda saylovlarni ko'ppartiyaviylik asosida o'tkazish nazarda tutilgan.

¹Хамидова К. Т. Сайловлар ва сиёсий партиялар фаолиятини молиялаштириш. – Тошкент: ТДЮИ, 2004. – Б. 11–12.

²Халилов Э. Х. Ўзбекистон Республикасининг қонун чикарувчи олий органи: сохта вакилликдан ҳақиқий парламентаризмга қадар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – Б. 86.

O'zbekiston xalqi ilk bor 1991 yil 29 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentini demokratik printsiplar asosida sayladi. Ushbu saylovda mavjud ikkita siyosiy partiyadan nomzodlar – XDPdan I. A. Karimov va «Erk» demokratik partiyasidan S. Madaminov ishtirok etdi.

Bu siyosiy voqeaning tarixiy ahamiyati shundaki, o'zbek xalqi 130 yillik mustamlakachilikdan keyin o'z tarixida birinchi marta o'zining davlat rahbarini erkin tanlov asosida sayladi. Saylovda qatnashgan barcha fuqarolarning 86 % (8514136 kishi) I. Karimov nomzodini, 12,3 % (1220474 kishi) esa «Erk» partiyasi rahbari S. Madaminovga ovoz berdi. I. Karimov O'zbekiston Respublikasining muqobillik asosida o'tkazilgan umumxalq saylovida saylangan birinchi Prezidenti bo'ldi¹.

1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi demokratik saylov tizimini shakllantirishning asosi bo'ldi². O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi 1993 yil 28 dekabr, «Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi 1994 yil 5 may, «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis to'g'risida»gi 1994 yil 22 sentyabr qonunlari 1994 yil 25 dekabrda Oliy Majlisga bo'lib o'tadigan saylovlarning huquqiy zaminini yaratdi.

Parlament uchun kurashish, unda ko'pchilik deputatlik o'rinlarini egallash saylov ishtirokchilarining muhim vazifasidir. Chunki siyosiy partiyalarning umumxalq saylovlarida shakllangan parlamentdan o'rin egallagan vakillari (deputatlar), xususan ular ko'pchilikni tashkil etsalar, qonunchilik faoliyatida ishtirok etish orqali o'z g'oyalarini hayotga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi XVI sessiyasi 1994 yil 25 dekabr kuni Oliy Majlis, shuningdek, viloyat, shahar va tuman kengashlariga

¹ Халқ сўзи. – 1991. – 31 декабрь.

² Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – Б. 31–32.

saylovlar o'tkazishga qaror qildi. Saylovlarga nomzodlar ko'rsatishda ko'ppartiyaviylik va muqobillik ta'minlandi.

1994 yil 25 dekabrda saylovlarda parlamentdagi 250 ta o'rin uchun XDPdan 247 ta, VTPdan 146 ta, davlat hokimiyati vakillik idoralaridan 250 nafar nomzod kurashdi. Saylovda saylovchilarning 93,6 % ovoz berishda ishtirok etdi. Natijada XDPdan Oliy Majlisga 69 kishi, VTPdan esa 14 nafar deputat, mahalliy hokimiyat organlaridan 167 nafar deputat saylandi¹.

SHunday qilib, mustaqillik sharoitida qabul qilingan Konstitutsiya va saylov to'g'risidagi qonun hujjatlari doirasida ilk bor o'tkazilgan birinchi chaqiriq Oliy Majlis saylovi O'zbekiston tomonidan demokratiya sari qo'yilgan muhim tarixiy qadam bo'ldi.

1999 yil 5 dekabrda ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar bo'lib o'tishi munosabati bilan barcha siyosiy partiyalar saylovoldi tayyorgarligini ko'ra boshladi, plenumlar, navbatdan tashqari qurultoylar bo'lib o'tdi.

1999 yil 25 dekabrda bo'lib o'tgan saylovlar natijasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga XDP – 49 nafar; FMDP – 34 nafar deputat; VTP – 20 nafar deputat; ASDP – 11 nafar deputat; MTDP – 10 nafar deputat; saylovchilarning tashabbuskor guruhlar – 16 nafar deputat; hokimiyat vakillik organlari – 107 nafar deputat saylandi.

Viloyat, shahar, tuman kengashlari deputatligiga ASDPdan 60 deputat, MTDPdan 14 deputat, XDP vakillaridan 241 tasi (30 %) Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlariga, 1962 (36,4 %) nafari tuman va shahar kengashlariga saylandilar².

2000 yil 9 yanvarda bo'lib o'tgan Prezidentlik saylovlarida saylovda qatnashgan fuqarolarning 91,9 % VTP, FMDP, ASDP, MTDP ko'rsatgan

¹ Ўша жойда. – Б. 120–121.

² Ахборот-маълумот материали. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Қонунчилик палатаси (чизма ва жадваллардаги иловалар билан). – Тошкент: Ўзбекистон, 2006. – Б. 8.

nomzod Islom Karimovni yoqlab ovoz berdi. XDP nomzodi A. Jalolovga berilgan ovozlar miqdori esa 4,17 %ni tashkil etdi¹.

Saylovlar davrida har bir siyosiy partiya Oliy Majlisda imkoni boricha ko'proq o'rin egallashga harakat qiladi. Aniq maqsad, raqobat muhiti yuzaga keladi, hayotga kuchliroq ta'sir ko'rsatishga, o'z dasturining maqsad va vazifalarini xalqqa yetkazishga intiladi. Bunga misol sifatida 2000 yil yanvarida O'zbekiston prezidentligiga saylov tajribasiga murojaat etamiz.

2004 yilda bo'lib o'tgan saylovlar avvalgilardan bir qator o'ziga xosliklari bilan ajralib turdi:

- siyosiy partiyalar ko'rsatgan nomzodlari orasida kamida 30 %ni ayollar tashkil etishiga oid qonun talabi;

- agar ilgari saylovlar haqiqiy deb hisoblanishi uchun saylovchilarning eng kamida 50 % ovoz berishi kerak bo'lgan bo'lsa, endilikda bu ko'rsatkich 33 %ni tashkil etdi;

- avvalgi qonunchilikka ko'ra sudlangan kishilar deputatlikka nomzod bo'la olmasdilar. Endi esa bu cheklash faqatgina sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslarga tegishli;

- mustaqil nomzodlar manfaatlarini himoya qiluvchi, ularga saylovoldi targ'ibotini tashkil etishda ko'maklashuvchi Mustaqil nomzodlarni qo'llab-quvvatlash markazi tashkil etildi² va boshqalar.

O'zbekiston parlamentini shakllantirish yo'llari 2003 yil 28 avgustda yangi tahrirda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi qonunda belgilangan³.

Ikki palatali parlamentga o'tish munosabati bilan Qonunchilik palatasiga 2004 yil 26 dekabr kuni saylov o'tkazilib, 62 nafar xalq deputati saylandi. Nomzodlar yetarli ovoz to'play olmagan saylov uchastkalarida 2005 yil 9 yanvarda 58 nafar deputat saylandi. Saylovlar ham O'zbekistonda faoliyat

¹ Курбонов С. Ш. Ўзбекистон Халқ Демократик партияси (Ташкил топиши ва фаолиятдан лавҳалар). – Тошкент: Университет, 2001. – Б. 196.

² www.elections.uz. Press reliz. – 2004. – 26 dekabr.

³ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисига сайлов тўғрисида Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 29 август (янги тахрирдаги) қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2003. – № 9–10. – 137-м.

yuritayotgan siyosiy partiyalar, ham saylovchilarning tashabbuskor guruhlarini ko'rsatgan deputatlikka nomzodlar ishtirokida bo'lib o'tdi¹.

2004 yil dekabrda saylov yakunlariga ko'ra Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga XDP dan 28, ASDPga 10, MTDPdan 11, FMDPdan 18, LiDePdan 41, saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan 12 nafar deputatlar saylandi².

2005 yil 17–20 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga saylovlar bo'lib o'tdi. Saylov natijalariga ko'ra, yuqori palata a'zolariga saylangan 84 nafar senator ro'yxatga olindi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va saylov qonunchiligiga muvofiq, Oliy Majlis Senatining 16 nafar a'zosi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 24 yanvardagi Farmoniga ko'ra, fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida, davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan obro'li fuqarolar orasidan tayinlandi³.

Navbatdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylovlar 2007 yil 23 dekabrda belgilandi. Saylov yakuniga ko'ra ro'yxatga olingan saylovchilarning 90,6 % (14 mln 765 ming 444 nafari) saylovda ishtirok etdilar. LiDePdan ko'rsatilgan nomzod I. Karimovga saylovchilar umumiy sonining 88,1 % ovoz berdi. XDP nomzodi A. Rustamov – 3,17 %, saylovchilarning tashabbuskor guruhi nomzodi A. Saidov – 2,85 %, ASDP nomzodi D. Toshmuxamedova – 2,94 % ovoz oldilar⁴.

Ayni chog'da O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tizimli, izchil va bosqichma-bosqich demokratik o'zgartirishlar jarayoni, aholining huquqiy va siyosiy madaniyati, fuqarolik jamiyati institutlarining yetuklik darajasi o'sganligi, ularning mamlakatni demokratik yangilash va modernizatsiya qilishdagi tutgan o'rnini mustahkamlashda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish masalasining dolzarbligi respublikaning saylov to'g'risidagi qonun

¹ Ахборот-маълумот материали. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Қонунчилик палатаси (чизма ва жадваллардаги иловалар билан). – Тошкент: Ўзбекистон, 2006. – Б. 9.

²Ғулом Мирзо. Сайлов кампанияси охирига етди // Халқ сўзи. – 2005. – 26 январь.

³Ғулом Мирзо. Сайлов кампанияси охирига етди // Халқ сўзи. – 2005. – 26 январь.

⁴Иванова А., Мирзаев Ғ. Мустақил Ўзбекистон халқи энг муносиб номзодни сайлади // Адолат. – 2007. – 28 дек.; Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссиясида /ЎЗА. http://elections.uz/uzb/yangiliklar/o'zbekiston_respublikasi_markaziy_saylov_komissiyasida_1.mgr

hujjatlarini yanada erkinlashtirish va takomillashtirishni taqozo etdi. SHu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taklifiga binoan «Saylov to'g'risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi Qonun Oliy Majlis palatalari tomonidan qabul qilingan va 2009 yil 1 iyuldan kuchga kirdi.

Ushbu qonunga ko'ra, birinchidan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasida deputatlik o'rinlari sonini 120 tadan 150 taga ko'paytirildi (bunda 135 deputat hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida saylanadi, 15 ta deputatlik o'rni esa ommaviy jamoat tashkiloti – O'zbekiston ekologik harakatiga ajratiladi); ikkinchidan, endigi saylovlarda tashabbuskor guruhlaridan nomzodlar qatnashmaydi; uchinchidan, «siyosiy partiyaning vakolatli vakili» instituti kiritildi (unga saylov uchastkalarida ovozlarni sanab chiqishda, imzo varaqalarining to'g'riligini tekshirishda ishtirok etish huquqi berildi, deputatlikka nomzodlarning ishonchli vakillari soni avvalgi 5 nafardan 10 nafargacha ko'paytirildi); to'rtinchidan, saylovda ishtirok etish niyatida bo'lgan partiyaning O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olishning avvalgi belgilangan muddati qisqartirildi (olti oydan ko'pi bilan to'rt oygacha), siyosiy partiyalar saylovda ishtirok etish huquqiga ega bo'lish uchun 50 ming nafar saylovchining imzosini to'plash lozim bo'lgan bo'lsa, bu miqdor 40 ming nafarga tushirildi va boshqalar¹.

2009 yil 27 dekabrda respublikada Oliy Majlis Qonunchilik palatasi hamda xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga yangi qonunchilik asosida saylovlar bo'lib o'tdi. Saylovda mamlakatdagi to'rtta siyosiy partiya qatnashdi«Saylovchi nafaqat o'zi tanlagan nomzodga, balki o'sha nomzod a'zo bo'lgan siyosiy partiyaga ham ovoz bermoqda, partiyaning g'oyalariga ishonch bildirmoqda... Xalqning ishonchini oqlay olmagan partiya o'z-o'zidan siyosiy maydondan chiqib ketadi»².

¹Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси, халқ депутатлари вилоят, туман ва шаҳар кенгашлари сайловига тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш бўйича концепция. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009. – Б. 6–7.

² Лукмонов В. Ўзбекистон Президенти овоз берди // Халқ сўзи. – 2009. – 29 декабрь.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga bo'lib o'tgan saylov yakunlariga ko'ra 150 ta deputat saylandi. SHu jumladan, LiDePdan 53 nafar, XDPdan – 32 nafar, MTDPdan – 31 nafar, ASDPdan 19 nafar deputat saylandi¹.

Bu galgi saylovning o'ziga xosligi shundaki, u sifat jihatdan yangi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda o'tkazildi. 2008 yil 1 yanvardan kuchga kirgan «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni moderni

,zatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonunining amalga oshirilishi ko'ppartiyaviylik tizimining rivojlanishi va mustahkamlanishiga, Qonunchilik palatasida siyosiy partiyalar rolining kuchayishiga va ular tomonidan qarorlar qabul qilinishiga ulkan ta'sir ko'rsatdi. Partiyalarning faolligi va partiyalararo raqobat darajasi oshdi.

O'zbekiston Respublikasi «Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida»gi qonunga muvofiq, davlat partiyalarning saylovlardagi ishtirokini, Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiya fraktsiyalarining faoliyatini, ularning ustav faoliyatini moliyalashtiradi.

O'zbekiston Respublikasida siyosiy partiyalarning nizomlariga ko'ra, pul mablag'lari partiyaga a'zolik badallaridan, O'zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslari xayriyalaridan, davlat byudjetidan ajratilgan mablag'lardan, shuningdek, noshirlik, ishlab chiqarish, xo'jalik, tadbirkorlik faoliyatidan keladigan daromadlar va boshqa tushumlardan tashkil topadi².

Qonunning 7-moddasiga ko'ra³, siyosiy partiya, agar u O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylov yakunlari bo'yicha ushbu palatada o'z fraktsiyasini tuzish uchun zarur miqdorda deputatlik o'rinlarini olgan bo'lsa, ya'ni kamida 9 ta o'rin olgan bo'lsa, o'zining ustav faoliyatini moliyalashtirish uchun davlat mablag'larini olish huquqiga ega bo'ladi.

¹ Ўзбекистон парламенти Қонунчилик палатасига сайлов якунланди // Ишонч. – 2010. – 14 январь.

² Ўзбекистон «Адолат» социал-демократик партиясининг низоми. – Тошкент, 1995. – Б. 40.

³ Хамидова К. Т. Сайловлар ва сиёсий партиялар фаолиятини молиялаштириш. – Тошкент: ТДЮИ, 2004. – Б. 25.

Siyosiy partiyalarga chet davlatlar; xalqaro tashkilotlar; chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar; chet el fuqarolari; fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tomonidan pul mablag'lari shaklidagi, mol-mulk berish, xizmatlar ko'rsatish, ishlar bajarish tariqasidagi xayr-ehson berilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Bu qonunning qabul qilinishi siyosiy partiyalar faoliyatining kuchayishida, ularga nisbatan saylovchilar tomonidan talabchanlikning ortishida juda muhim omil bo'ldi¹.

Fikrimizcha, bugungi kundagi partiyalar shunchaki partiya tuzish uchungina tuzilmasligi, bu shunchaki odatga aylanmasligi kerak. Har bir partiya o'z qiyofasiga, jamiyatning o'zi suyanadigan qatlamlar manfaatlarini ifoda qiluvchi aniq dasturiga ega bo'lishi lozim. U o'zining ma'lum va doimiy saylovchilariga ham ega bo'lishi lozim. Ayni paytda har bir partiya obro'-e'tibor orttirishga intilishi, ko'proq ishonch qozonishga, binobarin, qonun chiqaruvchi va vakillik organlarida, keyinchalik esa hokimiyatning ijrochi organlarida ham ko'proq o'rin olishga barakat qilmog'i darkor. Xalqqa saylov oldi mavsumida e'lon qilgan dasturining eng to'g'ri ekanini, mamlakat intilayotgan maqsad, farovon hayotga aynan mana shu dastur orqali erishish mumkinligini isbot qilgan holda, uni izchillik bilan hayotga tatbiq etishi lozim.

2. Siyosiy partiyaning parlamentdagi fraktsiyachilik faoliyati

Mustaqillikning birinchi kunlaridanoq O'zbekiston rahbariyati demokratiyani fundamental darajada rivojlantirish uchun hozirgi zamon jahon standartlariga javob beradigan va samarali faoliyat ko'rsatuvchi parlamentni shakllantirish zarurligini aniq bilgan. Biroq bir ijtimoiy tuzumdan boshqasiga o'tish davrida bu nafaqat juda muhim, balki nihoyatda murakkab ish edi.

Davlat siyosiy tizimdagi islohotni uch bosqichda amalga oshirdi: O'zSSR Oliy Kengashidan – mustaqil O'zbekiston Oliy Kengashiga, so'ngra

¹ Ўзбекистон Республикасининг «Сиёсий партияларни молиялаштириш тўғрисида»ги қонуни. – 3-модда // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2007. – № 21. – 248-м.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga va, nihoyat, yarimprofessional bir palatali parlamentdan ikki palatali professional parlamentga o'tdi.

Birinchi bosqichda (1991–1994 yillar) suverenitetning asoslarini yaratish, davlat va jamoat qurilishi, bozor iqtisodiyoti va ijtimoiy sohani rivojlantirish sohasida muhim qonunlarni qabul qilish, nafaqat bevosita parlament munosabatlarining sub'ektlari, balki butun jamiyat ham parlamentarizm asoslarini o'rganishi zarur edi. Eng asosiysi – mamlakatga qonunchilik va vakillik funktsiyalarini maksimal darajada bajaradigan, jamiyatni bo'ladigan emas, balki yaratuvchilik maqsadlarida birlashtiradigan ishchan parlament kerak edi. Zero, jamiyat oldida yangi demokratik davlat qurishdek muhim vazifalar turardi. Birinchi bosqichda yuqoridagi vazifalar asosan bajarildi¹.

1991–1994 yillarda o'tish davri parlamenti deb atash mumkin bo'lgan oxirgi chaqiriq Oliy Kengash davlat boshqaruvining mutlaqo yangi organlarini tashkil qilish va ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan adolatli demokratik jamiyat qurishning huquqiy negizi bo'lmish O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini, yosh davlatning suverenitetini mustahkamlashga qaratilgan bir qator qonunlarni qabul qildi.

1994 yil 23 sentyab kuni Oliy Kengashning o'n ikkinchi sessiyasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga birinchi saylovni 1994 yil 25 dekabrda o'tkazish to'g'risida qaror qabul qildi. Uch bosqichda (1994 yil 25 dekabrda, 1995 yilning 8 va 22 yanvarida) bo'lib o'tgan saylov yakunlariga binoan 245 nafar deputatdan iborat tarkibdagi parlament ko'ppartiyaviylik asosida shakllantirildi.

Ikkinchi bosqich (1995–2004 yillar) Oliy Majlis deb ataluvchi bir palatali yangi parlamentni shakllantirishdan boshlandi. Oliy Kengash o'rniga O'zbekiston Respublikasining bir palatali parlamenti – Oliy Majlis ta'sis etildi. Mustaqil O'zbekiston tarixida birinchi marta parlament deputatligiga nomzodlarni ko'p partiyali va muqobil asosda qayd etishni nazarda tutuvchi

¹Халилов Э. Х. Ўзбекистон Республикасининг қонун чиқарувчи органи: сохта вакилликдан ҳақиқий парламентаризмга қадар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – Б. 102.

1994 yilgi parlament saylovlari partiya fraktsiyalarining shakllanishiga imkon bergan katta qadam bo'ldi.

1994 yildagi *birinchi chaqiriq* Oliy Majlisga saylov natijasida parlamentda siyosiy partiyalarning uchta fraktsiyasi hamda hokimiyat vakillik organlaridan bitta blok tashkil qilindi, Milliy tiklanish demokratik partiyasi esa o'z fraktsiyasini qayd ettirmadi.

Birinchi chaqiriq Oliy Majlisga saylovning eng muhim natijasi parlamentning g'oyaviy-siyosiy tabaqalanishi hamda uning doirasida yuzaga kelgan asosiy partiyaviy-siyosiy kuchlarning joylashuvi bo'ldi¹.

1999 yilda *Ikkinchi chaqiriq* Oliy Majlisiga saylov natijasida parlamentning g'oyaviy-siyosiy tabaqalashuvi kuchaydi, asosiy partiyaviy-siyosiy kuchlarning yangi o'ziga xos tarkibi shakllandi. Bu davrda Oliy Majlisda beshta partiya fraktsiyasi, hokimiyat vakillik organlari deputatlarining bloki va saylovchilar tashabbuskor guruhlar deputatlarining bloki qayd etildi.

Keyinchalik Vatan taraqqiyoti partiyasi va Fidokorlar milliy demokratik partiyasining bitta Fidokorlar milliy demokratik partiyasiga birlashishi natijasida ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning ikkinchi sessiyasida ularning parlamentdagi fraktsiyalari ham birlashtirildi².

Siyosiy partiyalar fraktsiyalari faoliyatining normativ-huquqiy bazasi 2002 yil 27 yanvardagi referendumdan keyin umumxalq ovoz berishida qo'llab-quvvatlangan parlament islohoti doirasida rivojlantirildi. Mamlakat parlamenti haqidagi qonunchilik hujjatlari («O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonun hamda «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Reglamenti to'g'risida»gi qonun)ga siyosiy partiyalarning parlamentdagi fraktsiyalarini tashkil qilish va ularning faoliyat ko'rsatishi tartibini belgilovchi bir qator huquqiy normalar kiritildi. Bu esa 1996 yilda qabul qilingan «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi qonun normalarini ancha kengaytirdi.

¹Халилов Э. Х. Ўзбекистон Республикасининг қонун чиқарувчи органи: сохта вакилликдан ҳақиқий парламентаризмга қадар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – Б. 103.

² Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – Тошкент, 2000. – № 2–3. – Б. 103.

Fraktsiya lotincha “fractio” so’zidan olingan bo’lib, yemirib, buzib tashlash degan ma’nolarni bildiradi. Siyosiy hayotda esa biror-bir siyosiy partiyaning siyosatini parlamentda ifoda etuvchi, mahalliy o’zini-o’zi boshqaruvda, jamoat tashkilotlarida o’z organlariga ega bo’lgan ayni partiya vakillaridan iborat tashkiliy guruh; aniq g’oyaviy-siyosiy strategiyaga, bu strategik maqsadlarni amalga oshirish-ga qaratilgan platformaga ega bo’lgan siyosiy partiyaning alohida qismini anglatadi¹.

«O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to’g’risida»gi konstitutsiyaviy qonunda *fraktsiya* siyosiy partiyalardan ko’rsatiladigan deputatlar tomonidan partiya manfaatlarini Qonunchilik palatasida ifodalash maqsadida tuziladigan va belgilangan tartibda ro’yxatdan o’tkazilgan deputatlar birlashmasi ekanligi belgilab qo’yildi².

Parlament fraktsiyalarining tashkil qilinishi odatda ikki mezon – partiyaviy va songa oid mezonlar asosida amalga oshiriladi. Partiyaviy mezon parlamenti ko’ppartiyaviylik asosida shakllantiriladigan aksariyat mamlakatlarda e’tirof etilgan. U parlament reglamentida, kamroq hollarda davlat Konstitutsiyasi yoki maxsus qonunda huquqiy jihatdan mustahkamlab qo’yiladi.

«O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to’g’risida»gi konstitutsiyaviy qonunga ko’ra esa Qonunchilik palatasining kamida 9 nafar deputati fraktsiya yoki deputatlar guruhini tuzish huquqiga ega. Fraktsiya va deputatlar guruhi ro’yxatdan o’tishi kerak.

Siyosiy partiyalarning O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisidagi fraktsiyalari quyidagi singari huquqlarga ega: sessiya kun tartibini tuzishda ishtirok etish; kun tartibidagi har bir masala bo’yicha muzokaralarda o’z vakiliga kafolatlangan so’z berilishi; tegishli ravishda Oliy Majlis raisi, O’zbekiston hukumati, vazirlar, boshqa davlat organlarining rahbarlariga so’rovlar bilan murojaat etish; Oliy Majlis rahbarligiga, qo’mita va komissiyalar raisligiga nomzodlar bo’yicha takliflar kiritish; sessiyada muhokama

¹ Жўраев Н. Фракция // Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Т.9. – Т., 2005. – 311-б.

²Одилкориев Х.Т., Тультеев И. Т. Икки палатали парламент. – Тошкент: ЎЗР ИИВ Академияси, 2005. – Б. 252.

qilinayotgan masala bo'yicha fraktsiya fikrini deputatlar orasida tarqatish; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputatlari uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni amalga oshirish va h.k.

Biroq Oliy Majlis ikki chaqirig'i o'rtasidagi davrda siyosiy partiyalar fraktsiyalarining faoliyatida asosiy funktsiya, ya'ni yangi qonun loyihalarini ilgari surish vazifasi samarali bajarilmadi. Buni O'zbekiston Prezidenti mamlakatning ikki palatali parlamentiga saylov natijalari bo'yicha so'zlagan nutqida alohida qayd etdi¹. Siyosiy partiyalar fraktsiyalarining Oliy Majlis birinchi va ikkinchi chaqiriqlarida samarali ishlamagani ob'ektiv omil, ya'ni vakillik organlarida deputatlar faoliyatining asosiy ish bilan qo'shib olib borilishi bilan ham bog'liq edi.

Uchinchi bosqich – Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga saylov va ikki palatali parlamentga o'tishi (2004 yil dekabr – 2005 yil yanvar). Ikki palatali tizimga o'tish zaruratining asosiy sabablaridan biri parlamentni kuchaytirish, jumladan qonun chiqarish jarayonini to'liq professional asosga o'tkazish, qabul qilinayotgan qonun va qarorlar sifatini oshirish ehtiyoji edi. SHunday qilib, yuqori palataga «konservativ va hududiy element» ko'chdi, partiyalar va fuqarolarning tashabbuskor guruhlaridan umumxalq ovoz berishi orqali saylangan deputatlarga aholining turli ijtimoiy qatlamlari va guruhlarining siyosiy irodasini ifodalash uchun ko'plab imkoniyatlar qoldirdi. Senatorlar qonunchilik ishida qonun loyihasining oxirgi bosqichidagina qonunni ma'qullash yoki rad etish orqali ishtirok etadilar.

2004 yilgi saylov natijasida Oliy Majlis Qonunchilik palatasida beshta siyosiy partiya fraktsiyasi hamda bitta saylovchilar tashabbuskor guruhlarining bloki ro'yxatga olindi. 2006–2007 yillardagi konstitutsiyaviy islohotlar natijasida fraktsiyalarning roli ancha kengaytirildi.

Parlament fraktsiyalari ko'ppartiyaviy tizimning eng muhim tarkibiy elementidir. Agar turli partiyalar jamiyatning siyosiy qismini tashkil qilsa,

¹Каримов И. А. Ўзбекистон демократик тараққийётнинг янги босқичида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2005. – Б. 16.

parlament fraktsiyalari qonunchilik organining siyosiy makonini shakllantiradi. Parlamentda yagona siyosat yuritish maqsadida bir yoki bir qancha koalitsion partiyalarni birlashtiruvchi parlament fraktsiyalari avvalo, o'z elektorati, ijtimoiy guruhi va butun jamiyat manfaatlarini davlat darajasida himoya qilishga xizmat qiladi. SHunday qilib, mustaqil O'zbekiston tarixida ilk bor professional parlamentni shakllantirishni nazarda tutuvchi 2004 yilda ikki palatali parlamentga bo'lgan saylov partiya fraktsiyalarining mutlaqo yangi darajada rivojlanishiga imkon bergan salmoqli qadam bo'ldi.

Partiya va fraktsiyaning o'zaro munosabati partiya Ustavi bilan belgilanadi. Partiya fraktsiyasi o'z ishini partiyaning dasturiy hujjatlari, partiya Qurultoyi belgilagan parlamentchilik faoliyati vazifalari hamda partiya markaziy boshqaruv va ijroiya organlarining tavsiyalariga muvofiq tashkil etadi, shuningdek o'z faoliyati to'g'risida belgilangan tartibda partiya markaziy rahbar organlariga muntazam ravishda axborot berib boradi.

XDP Ustaviga binoan, «XDP fraktsiyasining Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi faoliyati partiyaning markaziy rahbariy organlari tomonidan muvofiqlashtiriladi»¹. ASDP Ustavida esa «O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasiga saylangan deputatlar partiya fraktsiyasini tashkil etib, qonunlar, davlat byudjeti, respublikaning strategik ichki va tashqi siyosat dasturlarini qabul qilishda, davlat boshqaruv apparatini shakllantirish va takomillashtirishda partiya siyosatini amalga oshiradi»², deb belgilab qo'yilgan.

2005 yil 15 fevral kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasida O'zbekiston Liberal demokratik partiyasi, Fidokorlar milliy demokratik partiyasi, Adolat sotsial demokratik partiyasi fraktsiyalari «Demokratik blok» tashkil etish haqidagi bitimni imzolaganlaridan so'ng Xalq demokratik partiyasi fraktsiyasi parlamentda muxolif ozchilik rolida faoliyat ko'rsatishini e'lon qildi. 27 nafar deputatdan iborat Xalq demokratik partiyasi fraktsiyasi o'z ishini partiyaning so'l siyosiy platformasidan kelib chiqib amalga oshira boshladi³.

¹ ХДП Устави. – Тошкент, 2004. – Б. 12.

² Ўзбекистонда сиёсий партиялар. – Тошкент: Минтақавий сиёсат жамғармаси, 2007. – Б. 19.

³ Расулова Н. С. Ўзбекистон Республикасида сиёсий партияларнинг вужудга келиши ва ривожланиши:

Qonunchilik palatasida siyosiy partiyalar fraktsiyalari o'z faoliyatini asosan qonunchilik tashabbusi ko'rsatish, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi majlislari muhokamasiga kiritilgan qonun loyihalari yuzasidan taklif va mulohazalar berish, qonunlar ijrosini nazorat va tahlil qilish, targ'ibot-tashviqot va uslubiy ishlar yuzasidan seminar va treninglar o'tkazish; fraktsiya va partiyaning xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro aloqalarini faollashtirish, fuqarolar murojaati, ariza va shikoyatlarini ko'rib chiqish hamda boshqa yo'nalishlarda olib boradilar.

Qonunchilik palatasida tuzilgan yangi fraktsiyalar o'z faoliyatlarini elektorat manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirdilar. Masalan, Xalq demokratik partiyasi fraktsiyasi, o'z elektoratining manfaatlaridan kelib chiqib, aholini ijtimoiy himoya qilish, iqtisodiy islohotlarni rivojlantirish, demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish kabi yo'nalishlarda, O'zbekiston liberal demokratik partiyasi o'z elektorati, ya'ni mulkdorlar, tadbirkorlar va fermerlar sinfining manfaatlarini faol himoya qilish bo'yicha, Milliy tiklanish demokratik partiyasi fraktsiyasi deputatlari esa asosan jismoniy tarbiya va sport, madaniy va tarixiy qadriyatlarni asrash, mualliflik huquqlarini himoyalash, oila farovonligi, OAV sohalariga yo'naltirib, yangi qonun loyihalari ishlab chiqish va amaldagi qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar tavsiya etishda faol ishtirok etdi¹.

Qonun loyihalarini tayyorlash partiya fraktsiyalari faoliyatida eng asosiy o'rinda turadi. «Qonun ijodkorligi, – deb izoh beradi rossiyalik olim Yu. A. Tixomirov, – qonunlarni tayyorlash, muhokama etish va qabul qilish bilan bog'liq bosqichlar hamda xatti-harakatlarni ifodalovchi qonunchilik jarayonidir»².

Qonunni izchil va og'ishmay ijro etish, uning ustunligini ta'minlash – O'zbekistonda huquqiy davlat qurishning eng muhim shartlari va asoslaridan biri. Professor U. Tojixonov ta'kidlaganidek, «eng yaxshi qonun ham, agar u tantanali ravishda e'lon qilinsa-yu, unga rioya etish davlat tizimi tomonidan

муаммо ва ечимлар (1991-2009 йиллар). Тарих фан. номз. дисс...автореф. – Т., 2010. –20-6 б.

¹Расулова Н. С. Ўзбекистон Республикасида сиёсий партияларнинг вужудга келиши ва ривожланиши: муаммо ва ечимлар (1991-2009 йиллар). Тарих фан. номз. дисс...автореф. – Т., 2010. –20-6 б.

² Тихомиров Ю. А. Провотворчество // Теория права. – М., 1998. – С. 164.

ta'minlanmasa, u behudadir. Agar qonun amal qilsa – uning obro'si bo'ladi, amal qilmasa – unga hurmat ham bo'lmaydi»¹.

Partiya fraktsiyalari a'zolarining qonun loyihalarini muhokama qilishdagi faolligi umuman fraktsiya faoliyatini baholashda asosiy ko'rsatkichdir. Qonunchilik palatasi majlislarida ko'rilgan barcha masalalar bo'yicha fraktsiya vakillari so'zga chiqib, muhokama qilinayotgan qonun loyihalarini takomillashtirish yuzasidan taklif va mulohazalar bildiradilar. Qonunchilik tashabbusi huquqidan ayrim deputatlar ko'proq va samaraliroq, boshqalari esa juda kam foydalanadilar.

Respublika mustaqilligining dastlabki yillarida siyosiy partiyalar fraktsiyalari qonunchilik jarayonida va qonun loyihalari muhokamasida juda sust ishtirok etdilar. Keyinchalik ularning bunday pozitsiyasi qattiq tanqidga uchragach, bu boradagi faoliyat biroz jadallashdi. Ammo siyosiy partiyalar fraktsiyalari saylovchilarning manfaatini himoya qiladigan qonunlarning qabul qilinishi uchun mas'ul ekanligini inobatga olsak, ushbu sohadagi ishlarni jadallashtirish dolzarb vazifa ekanligini anglab yetish qiyin emas.

¹ Таджиханов У. Правовая идеология и правовая культура в суверенном Узбекистане. – Тошкент: Академия МВД РУз, 1995. – С. 14.

2-bob bo'yicha xulosa

Umumxalq saylovlari orqali qonun chiqaruvchi organlarni shakllantirish demokratik huquqiy davlatning eng muhim belgisidir. Saylov – xalq o'z hokimiyati va xohish-irodasini to'g'ridan-to'g'ri ro'yobga chiqarishning oliy ifodasi, davlat hokimiyati organlarini demokratik tarzda tashkil etishning negizi hisoblanuvchi ulkan ijtimoiy-siyosiy tadbir.

O'zbekistonda saylovlar umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri va ko'ppartiyaviylik asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bu demokratik davlatning asosiy shartlaridan biridir. SHunday ekan, har bir saylovchi o'zi uchun o'z xohish-irodasiga qarab ovoz berishi shart ekanligini uning ongiga singdirish lozim.

Saylovlardan keyingi partiya faoliyati turli xil partiyalararo bitimlar tuzish, hukumatni shakllantirish jarayonida ishtirok etish, turli oqimlar va partiyalar bilan bloklar hamda ittifoqlar tuzishdan iborat buladi. Saylovlar davri partiya faoliyatining eng faol davri bo'lsa ham, saylovlarda g'alabaga erishgan partiya o'z siyosiy yo'lini barqaror ravishda xalq tomonidan qo'llab-quvvatlashiga erishish uchun harakat qiladi. Partiya faollari tomonidan, shuningdek, ommaviy axborot vositalari yordamida hukumat va uning organlari olib borayotgan ichki va tashqi siyosatini qo'llab-quvvatlash uchun turli kampaniyalar va tadbirlar o'tkazib turadi.

Siyosiy partiyalar o'zining davlat hokimiyati tizimida egallagan mavqeidan kelib chiqib, dasturlar ishlab chiqadilar, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot yo'llarini belgilab beradilar. Siyosiy partiyalar parlament faoliyatida ishtirok etish orqali mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotiga ta'sir etadilar. Buning uchun ular Oliy Majlisga saylovlar paytida o'z dasturlarini himoya qilishlari, har bir nomzodlik o'rni uchun kurash olib borishlari zarur bo'ladi.

Fikrimizcha, bugungi kundagi partiyalar shunchaki partiya tuzish uchungina tuzilmasligi, bu shunchaki odatga aylanmasligi kerak. Har bir partiya o'z qiyofasiga, jamiyatning o'zi suyanadigan qatlamlar manfaatlarini ifoda

qiluvchi aniq dasturiga ega bo'lishi lozim. U o'zining ma'lum va doimiy saylovchilariga ham ega bo'lishi lozim. Ayni paytda har bir partiya obro'-e'tibor orttirishga intilishi, ko'proq ishonch qozonishga, binobarin, qonun chiqaruvchi va vakillik organlarida, keyinchalik esa hokimiyatning ijrochi organlarida ham ko'proq o'rin olishga barakat qilmog'i darkor. Xalqqa saylov oldi mavsumida e'lon qilgan dasturining eng to'g'ri ekanini, mamlakat intilayotgan maqsad, farovon hayotga aynan mana shu dastur orqali erishish mumkinligini isbot qilgan holda, uni izchillik bilan hayotga tatbiq etishi lozim.

III BOB. “O’ZBEKISTONDAGI SIYOSIY PARTIYALAR VA ULARNING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI O’RNI” MAVZUSI BO’YICHA EKSPERIMENTAL ISHNI O’TKAZISH VA NATIJALARINI TAHLIL QILISH

1. Eksperimental ishni o’tkazish metodikasi

Jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, xalqaro va boshqa sohalarida maqsadlar o’zgarayotgan sharoitda, industrial jamiyatdan postindustrial va informatsion jamiyatga o’tish sharoitida ta’lim tizimiga qo’yilayotgan talablar o’zgarmoqda, uni modernizatsiya qilish zarurati yuzaga kelmoqda.

Bugungi kunda barcha ta’lim muassasalarida ta’lim mazmunini tanlash va strukturalashtirish, yangi ta’lim texnologiyalarini, dars berish shakllari va usullarini ishlab chiqish va moslashtirish, boshqaruv modellarini ishlab chiqish sohalarida izlanishlar olib bormoqdalar va h.k.

Innovatsion jarayon – yangiliklar yaratilishi (tug’ilishi, ishlab chiqilishi) o’zlashtirilishi, foydalanilishi va tarqatilishi borasidagi kompleks faoliyat.

Yangilik – bu aynan vosita (yangi metod, metodika, texnologiya, o’quv dasturi va shu kabilar). Innovatsiya – ana shu vositani o’zlashtirish jarayoni.

Pedagogikada innovatsiya ko’pincha pedagogik eksperiment bilan bog’lanadi. SHu bois o’quv yurti ma’muriyati va pedagogik jamoasi oldida yangiliklarni ishlab chiqish va o’zlashtirish texnologiyasini o’rganish, uni ta’lim muassasasi faoliyati natijalarini yaxshilash uchun vosita sifatida qo’llash muammosi yuzaga kelmoqda.

Har qanday innovatsion jarayon joriy etilgan bir xil (yagona) yangiliklardan iborat bo’ladi. Har qanday pedagogik ishlanmaning joriy etilish uni sinovdan o’tkazib ma’qullashni, binobarin, muayyan sharoitlarda pedagogik eksperiment o’tkazishni ham taqozo etadi. U individual ham, jamoaviy ham bo’lishi mumkin. Yangilikning ahamiyatini aniqlash uchun klassik tartibda eksperiment o’tkazish, ya’ni “eksperimental maydoncha”, “eksperimental guruh”da olingan natijalarni odatdagi rejimda ishlayotgan guruhlar orasidan tanlab olinadigan nazorat ob’ekti natijalari bilan qiyoslash zarur. Bunday tajriba-

,eksperimental ishni yangilik ilgari sinab ko'rilmagan taqdirda o'tkazgan ma'qul. Agar yangilikning samaradorligi boshqa o'quv yurtlarining tajribasi bilan tasdiqlangan bo'lsa, uning ahamiyatga egaligini tasdiqlash talab etilmaydi, boshqa tajriba-eksperimental ish vazifasi, ya'ni yangilikni joriy etish mexanizmini ishlash (obrabotka) vazifasi qo'yiladi, bunda ta'lim muassasalari eksperimental faoliyat yo'nalishlarini mustaqil belgilaydilar.

Eksperiment – bu ilgari surilgan gipotezani tekshirish uchun mo'ljallangan hamda tabiiy va sun'iy sharoitlarda amalga oshiriladigan, natijasi yangi bilim bo'lgan, pedagogik faoliyat natijalariga ta'sir etuvchi jiddiy omillarni qamrab oladigan tadqiqot faoliyatidir¹.

Pedagogik eksperiment – vazifasi o'quv-tarbiya faoliyatida qo'llaniladigan texnologiyalar, metodlar, usullar, yangi mazmun kabilarning nisbatan samaradorligini aniqlashdan iborat bo'lgan eksperiment.

Maqsadlariga ko'ra eksperimentlarning quyidagi turlari ajratiladi.

Qayd etuvchi eksperiment quyidagi savollarga javob beradi: “Innovatsion metodikani sinovdan o'tkazish uchun taklif etilayotgan o'rganilayotgan predmetda nima mavjud yoki nima qoniqtirmaydi? Taklif etilayotgan usullar majmui, o'quv jarayonini tashkil qilish shakllari, joriy etilayotgan pedagogik texnologiyalar pedagogik muammoni hal qilishga mos keladimi?” Asosan, qayd etuvchi eksperiment innovatsion amaliyotga joriy etish maqsadida yangiliklarni sinab ma'qullash maqsadlariga xizmat qiladi. Eksperimentning bu turi yangi dastur, o'quv qo'llanmasi samaradorligi (samarasizligi) dalillari bo'lgan materiallar majmuini shakllantirishga xizmat qiladi. Eksperiment natijalariga ko'ra aniqlangan faktlar qayd etiladi, o'quv qo'llanmasi kontseptsiasining dasturi va uning mazmunini o'zgartirish yuzasidan aniq tavsiyalar taklif etiladi, ijobiy va salbiy natijalar qayd etiladi.

Loyiha-tadqiqot, izlov eksperimenti ta'lim berish faoliyati choralari, metodlari, usullari tizimini izlashga xizmat qiladi. Amalda ta'lim jarayonida va

¹Новикова Т.Г. Проектирование эксперимента в образовательных системах. М., 2002. – С. 134.

muayyan predmet sohasidagi muammoli vaziyatlarning hammasini ularning sabablari, bartaraf etish mexanizmlarini ilmiy o'rganish asosida hal qilishga, eng asosiysi kelajakda ular muntazam takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik mexanizmini formatlashtirishga urinib ko'rish mumkin. SHu o'rinda ta'lim amaliyoti va texnologiyasi o'rtasidagi farq yorqin ko'rinadi. Agar amaliyot yuzaga keladigan bir xil muammolarga qarshi doimiy ravishda tinimsiz kurashishga qaratilgan bo'lsa, izlov rejimidagi ta'limni texnologiyalashtirish muammoli vaziyatlarning sabablari shakllanishi imkoniyatlarining o'zini bartaraf etishga qaratilgan bo'ladi. Muammoli vaziyatga ijobiy "ta'sir ko'rsatish" choralari – bu ijodiy loyihalashtirishning keng maydonidir.

SHakllantiruvchi eksperiment o'quvchilarni ham, butun ta'lim makonini ham o'zgartirishga xizmat qiladi. SHakllantiruvchi eksperiment o'quv jarayonini demokratlashtirish, pedagog va o'quvchi o'zaro munosabatlarining, sinf ichidagi (guruhiy) mikrosotsium (kichik jamoa) o'zaro munosabatlarining tabiatini o'zgartirish muammosini hal etishi mumkin. Bu turdagi eksperiment xotira, idrok, motivatsiya, tafakkur, diqqatni rivojlantirishga qaratilishi mumkin. U o'quv jarayonining o'zini-o'zi tashkil qilishi, mustaqil ta'lim va o'zini tarbiyalash mexanizmlarini ishga solish asosida o'quvchining shaxsiga faol ijobiy ta'sir ko'rsatish vazifalariga xizmat qilishi mumkin. Predmet sohasida mualliflik metodikasini ishlab chiqayotgan pedagog uchun ushbu eksperiment o'quvchining umumta'lim kompetentsiyasini (bilim, ko'nikma va mahoratini) shakllantirishda samaradorlik darajasini tekshirishga yordam beradi.

Nazorat eksperimenti shakllantiruvchi eksperiment natijalari bo'yicha o'zgarishlar darajasini ko'rsatadi.

Pedagogik eksperimentlar o'z darajalariga ko'ra quyidagi turlarga ajratiladi:

- individual;
- o'quv yurti ichidagi eksperiment;
- shahar, tuman doirasidagi;
- viloyat doirasidagi;

- respublika doirasidagi.

Eksperimentlar turlari bo'yicha quyidagilarga ajratiladi:

Lokal – o'zaro bog'liq bo'lmagan xususiy (juz'iy) eksperimentlar, masalan: fan bo'yicha yangi dastur.

Modulli – juz'iy, o'zaro bog'liq yangiliklar majmui, masalan: yangi dasturlar bloki, ta'lim bo'yicha yangi texnologiyalar ishlab chiqilishi, yangi ijodiy birlashma yaratilishi.

Sistemali – butun o'quv yurtini qamrab oladigan yangiliklar. O'quv yurtini rivojlantirishning yangi dasturi ishlab chiqiladi, masalan: butun o'quv yurtini qandaydir g'oya, kontseptsiya bo'yicha qayta qurish, yoxud avvalgi ta'lim muassasasi negizida yangisini yaratish.

Kengmiqyosli – (masalan: ta'lim tuzilishi va mazmunini takomillashtirish bo'yicha eksperiment).

Eksperimentlar dasturi lokal yoki modulli qo'llanishlarda tuziladi, agar butun o'quv yurtini sistemali hosil qilish haqida masala qo'yiladigan bo'lsa, boshqa hujjat – “O'quv hujjatini rivojlantirish dasturi” tayyorlanadi. M. M. Potashnik ta'kidlaganidek, pedagogik amaliyotda “eksperiment” tushunchasi ko'pincha so'zning tom ma'nosida, asosan noaniq va noma'lum natijalar beradigan ilmiy-tadqiqot faoliyati sifatida qo'llanilmaydi. Ko'p hollarda “eksperiment” so'zi orqali garchi yaqin bo'lsa-da, ammo aynan bo'lmagan tushunchalar birlashtiriladi. Masalan, “izlash”, “izlov ishlari”, “tajriba”, “tajriba-eksperimental ish”, “tadqiqot ishi”, “eksperimentning o'zi” va sh.k. Ommaviy pedagogik amaliyotda ushbu tushunchalar o'rtasida juda qat'iy, aniq chegaralar yo'q, ularning bari ko'p yoki kam darajada “tom ma'nodagi eksperiment”ning qaysidir ulushini nazarda tutadi¹. Mazkur ta'riflardan har biri ushbu hodisaning u yoki bu tomonini yoritadi. Pedagogikada ijodiy izlanish, tajribaviy ishlar eksperimentni, ya'ni izlov faoliyatini, yangi pedagogik tajriba yaratilishini nazarda tutadi. Mazkur tushunchalarning hammasini aniq va qat'iy ajratishning imkoni yo'q. Aniq bir innovatsion pedagogik faoliyat asosiy

¹Поташник М.М. Организация опытно-экспериментальной работы в школе. М., 1991. – С.123.

dominanta belgisi bo'yicha u yoki bu tushunchaga kirishi mumkin: faoliyatda yangilik qancha ko'p bo'lsa, u tom ma'nodagi eksperimental ishga shunchalik yaqin bo'ladi; unda boshqa pedagoglar tomonidan boshqa sharoitlarda allaqachon ma'lum texnologiyalarning qo'llanilishi qancha ko'p bo'lsa, u tajriba ishiga shuncha yaqin bo'ladiki, uning davomida yangilik izlanishi va keyinchalik sinovdan o'tkazilib ma'qullanishi, ya'ni o'sha tom ma'nodagi eksperiment yuz beradi.

A. S. Sidenko va T. G. Novikova "Ta'limdagi eksperiment" kitobida har qanday eksperiment dasturini ishlab chiqishga kirishishdan avval o'quv yurti ichida eksperiment darajasini aniqlab olish lozimligini ta'kidlaganlar:

- tajriba ishi;
- tajriba-eksperiment faoliyati;
- eksperimental-izlov faoliyati;
- eksperimental-tadqiqot faoliyati.

Ayni vaqtda o'quv yurtlarining o'zlari, ilmiy-metodik mavzu ishlanishiga ko'ra, muayyan rivojlanish darajalaridan o'tadilar¹.

2. Olingan natijalar tahlili va uslubiy tavsiyalar

"O'zbekistondagi siyosiy partiyalar va ularning davlat boshqaruvidagi o'rni" mavzuidagi tadqiqot doirasida ushbu muammoni o'rganishning hozirgi holatini hamda ushbu mavzu bo'yicha ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning bilim darajasini aniqlashga qaratilgan kichikroq eksperiment o'tkazildi.

Eksperimental ish Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti qoshidagi akademik litseyning 3-bosqich talabalari o'rtasida o'tkazildi. Unda uchinchi kursda ta'lim oluvchi 54 nafar o'quvchi ishtirok etdi. Ular nazorat guruhi va eksperimental guruhga bo'lindilar. Nazorat guruhini Filologiya ta'lim yo'nalishi 303f-guruhida ta'lim oluvchi 25 nafar o'quvchi, eksperimental

¹Сиденко А.С. Новикова Т.Г. Эксперимент в образовании. М., 2002. – С.145.

guruhni esa Tarix ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan 304f-guruhning 29 nafar talaba tashkil qildi.

Davlat ta'lim standartiga muvofiq, tadqiq etilayotgan mavzu ushbu litseyning 3-kursning 6-semestrida o'rganiladi.

Baholash natijalaridan nazoratdagi va eksperimental guruh o'quvchilari ushbu mavzuni o'rganishga amalda bir xil darajada qiziqish ko'rsatishlari ma'lum bo'ldi.

Nazorat guruhida mashg'ulot an'anaviy metodika bo'yicha noan'anaviy usullarni qo'llagan holda o'tkazildi. Yangi mavzu o'quvchilarga tushuntirib berildi. Mavzu rejasi asosida talabalarning bilimi nazorat qilindi. Mustahkamlash uchun "Blits" savollardan foydalanildi, o'qituvchi talabalarni qiziqtirgan savollarga javob berdi. Mashg'ulot oxirida mustahkamlash uchun savol-javoblar qilindi. O'quvchilarga uy vazifasi sifatida Internet tarmog'i, teleko'rsatuvlar va radioeshittirishlar materiallari asosida "O'zbekiston siyosiy partiyalarining faoliyati" mavzusida mustaqil ish tayyorlash topshirildi.

Umuman olganda, ushbu mashg'ulotlar o'z maqsadiga erishdi – o'quvchilar O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalarhaqida muayyan ma'lumotlarga ega bo'ldilar. Biroq tizimli axborotning mavjud emasligi, ta'limning zamonaviy texnologiya va metodlaridan foydalanilmaganligi tufayli ushbu ma'lumotlar o'quvchilar xotirasida uzoq saqlanib qolmadi. Taqdim etilgan materiallarga nisbatan muayyan ishonchsizlik va befarqlik kuzatildi. Binobarin, o'quvchilar o'rganilgan mavzu bo'yicha mustahkam bilim olganlari haqida so'z yuritish qiyin.

Eksperimental guruhlarda esa mashg'ulotlar noan'anaviy shaklda, innovatsion texnologiyalar, "Aqliy hujum", "Tushunchalar tahlili", "Loyiha" metodlari asosida kichik guruhlarga bo'lingan holda o'tkazildi.

Mashg'ulotlarda ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlashi ustunlik qildi.

Mashg'ulotning borishini qisqacha quyidagicha tavsiflash mumkin:

Tashkiliy qism (salomlashish, o'quvchilarni mashg'ulotga tayyorlash)dan keyin mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanish-

tirildi. O'qituvchi mavzu bo'yicha talabalarning mavjud bilimlarini aniqlash maqsadida "Aqliy hujum" metodi orqali o'quvchilarni faollashtirdi.

Asosiy qism boshida yangi mavzu o'quvchilarga Input, ya'ni qisqa ma'ruza shaklida ta'limning zamonaviy texnologiyalaridan foydalangan holda slaydlar orqali tushuntirildi.

Mavzu yuzasidan o'quvchilarni faollashtirish, mustaqil ishlashga o'rgatish va bilimni baholash uchun «Loyiha» ped.texnologiyasini qo'llash tartibi bilan tanishtirdi. O'quvchilarnikichik guruhlariga bo'lib, ularga vazifa va uni bajarish uchun vaqt berdi. So'ngra, mashg'ulot rejasiga binoan, o'quv materiali taqdimot metodi yordamida ketma-ket bayon etildi. Muayyan motivatsion ish, o'qituvchining jonli fikr almashuvi muhitini yaratishi o'quvchilar qizg'in bahs-munozaraga kirishishlariga olib keldi. Munozara jarayonida o'quvchilar yetarlicha asoslangan fikrlar bildirdilar, taqdim etilgan ma'lumotlarni tahlil qildilar, kursdoshlari va o'qituvchilarining savollariga javob berdilar.

Mashg'ulotning yakunlovchi qismida o'qituvchi o'tilgan mashg'ulotni mustahkamlash maqsadida mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarga ta'rif berishni taklif qiladi va shu asosda «Tushunchalar tahlili» ped.texnologiyasini qo'llab, o'quvchilarning bilimni mustahkamlaydi.

O'quvchilar O'zbekistonda ko'ppartiyaviylikning shakllanish jarayoni, bosqichlari va tarixi haqida, bugungi kunda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalar, parlamentdagi fraktsiyalari haqida egallagan bilimlarini mustahkamladilar, yangi ma'lumotlar bilan boyitdilar.

Ularning barchasi bugungi kunda siyosiy partiyalar amalga oshirayotgan ishlarni tahlil qilib, yutuq va kamchiliklarni muhokama qildilar, o'zlarining fikr-mulohazalarini bildirdilar va o'qituvchi ko'magida xulosa qilishga harakat qildilar.

Quyidagi jadvalda ikkala guruhda ham qatnashgan o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirish bo'yicha olgan baholari haqida ma'lumotlar keltirilgan.


Ushbu jadval eksperimental guruh o'quvchilarining o'zlashtirish ko'rsatkichi nazorat guruhi talabalarining ko'rsatkichlaridan yuqoriroq

ekanligini ko'rsatdi. Eksperimental guruh o'quvchilarining 29 tasidan 14 nafari a'lo baho (nazorat guruhidagi 25 o'quvchidan esa 6 nafari), 12 nafari yaxshi baho (nazorat guruhida esa 13 nafari), 3 nafari qoniqarli baho (nazorat guruhida esa 6 nafari) olganlar.


Eksperimental va nazorat guruhi o'quvchilarining mavzu bo'yicha olgan baholari

№		Kurs	Guruhi	Yo'nalishi	Talabalar soni	«5»	«4»	«3»	«2»
1	Nazorat guruhi	3	3-03	Filologiya	25	6	13	6	-
2	Eksperimental guruh	3	3-04	Filologiya	29	14	12	3	-

Nazorat guruhi



Eksperimental guruh



Eksperimental guruh o'quvchilarining o'zlashtirish ko'rsatkichlarining nazorat guruhi o'quvchilariga nisbatan yuqoriligiga o'qitishning zamonaviy usul va texnologiyalaridan foydalanilganligi sabab bo'ldi, deb o'ylaymiz. O'quvchilarni o'zini ta'lim jarayoniga faol jalb etilganligi ham darsning samaradorligini oshirdi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida ko'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormokda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-

talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir katorida boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funktsiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi-talaba asosiy figuraga aylanadi.

SHuning uchun oliy o'quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari-interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchi - talabalarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

O'qituvchi va o'quvchi-talabaning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda o'quvchi-talabalarinnng bilim saviyasi, guruh harakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishish uchun balkim, kompyuter bilan ishlash lozimdir, balkim film, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo'lar, bular o'qituvchi va o'quvchi-talabaga bog'liq.

3. Eksperimental guruhda o'tkazilgan seminar mashg'ulotining texnologik xaritasi

MAVZU. O'ZBEKISTONDAGI SIYOSIY PARTIYALAR VA ULARNING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI O'RNI

1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

Mashg'ulot vaqti – 2 soat	Talabalar soni: 20–30 nafar
Mashg'ulot shakli	Aralash dars
<i>Seminar mashg'uloti rejasi</i>	1. Siyosiy partiyalarning shakllanish bosqichlari. 2. Siyosiy partiyaning funktsiyalari, belgilari va turlari. 3. Siyosiy partiyalar va saylov qonunchiligi. 4. Siyosiy partiyaning parlamentdagi faoliyati.

<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> O'zbekistondagi siyosiy partiyalar va ularning davlat boshqaruvidagi o'rnibo'yicha bilimlarni rivojlantirish.	
Pedagogik vazifalar: • Siyosiy partiyalarning shakllanish bosqichlari haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish; • Siyosiy partiyaning funktsiyalari, belgilari va turlari tahlil qilish; • O'zbekiston Respublikasi siyosiy partiyalari va saylov qonunchiligini tahlil qilish; • Siyosiy partiyalarning parlamentdagi faoliyati haqidagi bilimlarni rivojlantirish.	O'quv faoliyati natijalari: • Siyosiy partiyalarning shakllanish bosqichlari haqida so'zlab beradilar; • Siyosiy partiyaning funktsiyalari, belgilari va turlarini tahlil qiladilar; • O'zbekiston Respublikasi siyosiy partiyalari va saylov qonunchiligini tahlil qiladilar; • Siyosiy partiyalarning parlamentdagi faoliyati haqida so'zlab beradilar.
<i>Ta'lim berish usullari</i>	Munozara, suhbat, Aqliy hujum, «Tushunchalar tahlili», «Loyiha» ped.texnologiyalari
<i>Ta'lim berish shakllari</i>	Ommaviy, guruhlarda, yakka tartibda
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	O'quv qo'llanma, proektor, qo'shimcha adabiyotlar, tarqatma materiallar
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki so'rov: savol-javob, tezkor so'rov

2. “O'zbekistondagi siyosiy partiyalar va ularning davlat boshqaruvidagi o'рни” mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorlov bosqichi	Mavzu, ta'lim maqsadini belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. Belgilangan ta'limiy maqsadlarga mos o'quv topshiriqlari ishlab chiqadi.	
1.O'quv mashg'ulotiga kirish (20 daqiqa)	1.1. Mashg'ulot mavzui, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi (1-ilova). 1.2. “Aqliy hujum” metodi orqali qisqa savol-javob o'tkaziladi (2-ilova).	Tinglaydilar Javob beradilar
2. Asosiy bosqich (50 daqiqa)	2.1. Mashg'ulot rejasi asosida Input o'tkaziladi (3-ilova). 2.2. Mavzu yuzasidan talabalarni faollashtirish, mustaqil ishlashga o'rgatish va	Tinglaydilar, yozib oladilar.

	bilimini baholash uchun «Loyiha» ped.texnologiyasini qo'llash tartibi bilan tanishtiradi (4-ilova). 2.3. Kichik guruhlariga vazifa va uni bajarish uchun vaqt beradi (5-ilova).	Tinglaydilar. Mustaqil ishlaydilar.
3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1.Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarga ta'rif berishni taklif qiladi va shu asosda «Tushunchalar tahlili» ped.texnologiyasini qo'llab, o'quvchilar bilimini mustahkamlaydi (6-ilova) 3.2.Mavzu bo'yicha o'quvchilarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi va o'quv faoliyati yuzasidan xulosa chiqaradi. 3.3. Talabalarning mavzu maqsadiga erishish borasidagi faoliyatini tahlil qiladi va o'zlashtira olmagan joylarini qayta o'qib chiqishni tavsiya etadi.	Javob beradilar Tinglaydilar Vazifani yozib oladilar

1-ilova

Mavzu: O'zbekistondagi siyosiy partiyalar va ularning davlat boshqaruvidagi o'rni

1. Siyosiy partiyalarning shakllanish bosqichlari.
2. Siyosiy partiyaning funktsiyalari, belgilari va turlari.
3. Siyosiy partiyalar va saylov qonunchiligi.
4. Siyosiy partiyaning parlamentdagi faoliyati.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: O'zbekistondagi siyosiy partiyalar va ularning davlat boshqaruvidagi o'rniga doir bilimlarni chuqurlashtirish.

O'quv mashg'ulotining natijasi: O'zbekistondagi siyosiy partiyalar va ularning davlat boshqaruvidagi o'rni haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.

2-ilova

«Aqliy xujum» usulining asosiy qoidalari

- Bildirilgan fikr va mulohazalar tanqid qilinmaydi va baholanmaydi.
- Taklif qilinayotgan fikr va g'oyalar qanchalik xomxayol va antiqa bo'lsa ham, uni baholashdan o'zingizni tiying!
- Tanqid qilmang – bildirilgan hamma fikrlar bir xilda bebahodir.
- Fikr bildirilayotganda uni bo'lmang!
- Maqsad – fikr va g'oyalar sonini ko'paytirish.
- Berilgan savolga qisqacha (1-2 so'zdan iborat) javob beriladi.

“Aqliy hujum” usuli orqali beriladigan taxminiy savollar

1. Partiya nima?
2. Siyosiy partiyalarning vazifalari nimalardan iborat?
3. Qanday siyosiy partiyalarni bilasiz?
4. Biror bir siyosiy partiyaga a'zomisiz?

3-ilova

Input

INPUT - ingliz tilidan tarjima qilinganida "axborotni kiritish", "boshlang'ich ma'lumotlar" degan ma'noni bildiradi.

O'qituvchining inputi o'quvchilarga yangi axborotni qisqa muddatda yetkazib berishdir.

Inputning muddati 15-20 daqiqadan ko'p bo'lmasligi lozim. Bu insonning idrok etishdagi psixologik xususiyatlari bilan bog'liqdir. Inson bitta predmet (mavzu)da o'z e'tiborini 15 daqiqadan ko'p bo'lmagan muddatda mujassam eta oladi.

Mashg'ulot davomida bir nechta kichik inputlar bo'lishi mumkin, ammo input mashg'ulot umumiy vaqtining 20 % idan ortig'ini olmasligi lozim.

Quruq nazariy materialni jonlashtirish lozim, bunda hayotdan misollar, rivoyatlar, voqealar keltirish yoki qiyoslash assotsiatsiya berish kerak, ammo bularning hammasi mavzu bo'yicha bo'lishi lozim. Bu ishtirokchilarning diqqat-e'tiborini yuqori darajada faollashtiradi

O'quvchilarga tushunarli bo'lgan sodda tilda gapirish lozim. Agarda biron-bir tavsiflarni kiritish lozim bo'lsa, albatta, ularni tushuntiring. Barcha tavsiflar aniq va bir ma'nolilik bo'lishi lozim.

SIYOSIY PARTIYALAR

- ✗ **Siyosiy partiya** O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko'ngilli birlashmasidir.



2

SIYOSIY PARTIYALARNING O'RN VA FUNKTSIYALARI



o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar



Fuqarolarning siyosiy huquqlarini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi



turli tabaqa va guruhlarining siyosiy irodasini ifodalaydilar

3

O'ZBEKISTONDA KO'PPARTIYAVIYLIKNING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH JARAYONI BOSQICHLARI

Birinchi bosqich (1991–1994 yy.)	yakka partiyaviylikning tugatilishi va ko'ppartiyaviylik shart-sharoitlarining yaratilishi
Ikkinchi bosqich (1995–1999 yy.)	siyosiy partiyalarning siyosiy dasturlari va saylovoldi platformalarining shakllantirilishi, aholining umumiy siyosiy madaniyatini oshirishga qaratilgan qonunchilik asoslarini takomillashtirilishi
Uchinchi bosqich (2000–2004 yy.)	partiyalarning siyosiy tajriba to'plash va siyosiy yetuklikka erishish vazifalarini hal etishi, moliyaviy mustaqilligini ta'minlashi, jamiyatda o'z o'rnini va doimiy elektoratini belgilab olishi

To'rtinchi bosqich (2005–2006 yy.)	siyosiy partiyalarning eng muhim davlat qarorlari qabul qilinishiga ta'sirning kuchayishi, partiya fraktsiyalarining Oliy Majlis faoliyatidagi hamda partiya guruhlarining xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlari ishidagi faolligining o'sishi, parlament nazorati funktsiyalarining kuchayishi, parlamentda konstruktiv muxolafatning shakllanishida namoyon bo'ldi.
--	--

Beshinchi bosqich (2007 y. – hozirgi kunlar)	siyosiy partiyalar faoliyatining yangi konstitutsiyaviy qonun asosida jadallashuvi, siyosiy partiyalarning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga bo'lib o'tgan saylovlardagi haqiqiy ishtiroki
--	--

MAMLAKAT PARLAMENTI VA SIYOSIY PARTIYALARI HAQIDAGI QONUNCHILIK HUJJATLARI:

- ✖ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.
- ✖ «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida» 2007 yil 11 aprely konstitutsiyaviy qonuni
- ✖ «Siyosiy partiyalar to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 26 dekabr qonuni
- ✖ «Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining 2004 yil 30 aprely qonuni
- ✖ «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamenti to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining 2003 yil 29 avgust qonuni
- ✖ «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining 2003 yil 29 avgust qonuni
- ✖ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida O'zbekiston Respublikasining 2003 yil 29 avgust (yangi tahrirdagi) qonuni
- ✖ «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining 2002 yil 12 dekabrda konstitutsiyaviy qonuni
- ✖ «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining 2002 yil 12 dekabrda konstitutsiyaviy qonuni

1

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SIYOSIY PARTIYALARNING NIZOMLARIGA KO'RA PUL MABLAG'LARI:

- ✖ -- partiyaga a'zolik badallaridan,
- ✖ -- O'zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslari xayriyalaridan,
- ✖ -- davlat byudjetidan ajratilgan mablag'lardan,
- ✖ -- noshirlik, ishlab chiqarish, xo'jalik, tadbirkorlik faoliyatidan keladigan daromadlar va boshqa tushumlardan tashkil topadi.
- ✖ O'zbekiston Respublikasi «Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida»gi qonunga muvofiq, davlat:
 - ✖ -- partiyalarning saylovlardagi ishtirokini,
 - ✖ -- Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiya fraktsiyalarining faoliyatini,
 - ✖ -- ularning ustav faoliyatini moliyalashtiradi.

13

4-ilova

«Loyiha» pedagogik texnologiyasi

Ushbu texnologiyaning sharti – guruhni alohida masalalar bo'yicha guruhlarga ajratish, bunda tanlab olingan voqea va hodisalarning izchilligi va ketma-ketligiga amal qilish, guruh vakillari ham o'z namoyish etayotganlarida shu ketma-ketlikka amal qilishi lozim. Ularga material bilan ishlash uchun beriladigan vaqt material hajmi va ta'lim muassasining turiga qarab belgilanadi. SHuningdek, beriladigan vazifalar soni ham materialning bandlari bilan bog'liq.


1-bosqichda guruhlarga vazifa beriladi, guruh vakillari materialni olib, u bilan tanishadilar, to'ldiradilar (10 min.).

2-bosqichda guruh vakillari voqea va hodisalar ketma-ketligiga qarab o'z qarashlarini himoya etadilar (40 min.), o'qituvchi esa har bir guruh namoyishini izohlab borishi zarur.

5-ilova

Guruhlarga beriladigan topshiriq

O'zbekiston Respublikasida mavjud siyosiy partiyalar faoliyati tahlili



6-ilova

«Tushunchalar tahlili» ped. texnologiyasi

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- talabalar mashg'ulotni o'tkazishga qo'yilgan talab-qoidalar bilan tanishtiriladi;
- tarqatma materiallar talabalarga beriladi;

- talabalar tarqatma materialda mavzu bo'yicha berilgan tushunchalar yoniga egallagan (yoki o'zlarining) bilimlari asosida (berilgan tushunchalarni qanday tushungan bo'lsalar shunday) izoh yozadilar (yakka tartibda);
- o'qituvchi tarqatma materialda mavzu bo'yicha berilgan tushunchalarni o'qiydi va jamoa bilan birgalikda har bir tushunchani to'g'ri izohini belgilaydi yoki (imkoni bo'lsa) ekranda har bir tushunchaning izohi berilgan slayd orqali tanishtiriladi;
- har bir talaba (yoki o'qituvchi) to'g'ri javob bilan belgilangan javoblarning farqlarni aniqlaydi, kerakli tushunchaga ega bo'ladi, o'z-o'zini tekshiradi, baholaydi, shuningdek bilimlarini yana bir bor mustahkamlaydi.

Tushunchalar	Mazmuni
Partiya	
Siyosiy partiya	
Fraktsiya	
Parlament	
Deputat	
Prezident	
Ikki palatali parlament	
Ko'ppartiyaviylik	
Yakkapartiyaviylik	
Kommunistik partiya	
Erk demokratik partiyasi	
Birlik harakati	
Xalq demokratik partiyasi	
Liberal demokratik partiya	
Milliy tiklanish demokratik partiyasi	

3-bob bo'yicha xulosa

Pedagogik eksperiment ilgari surilgan gipoteza to'g'riligini ilmiy jihatdan xolis tarzda va dalillar bilan tekshirishni ta'minlovchi tadqiqot metodlarining majmuidir. Pedagogik eksperiment faoliyatni qiyoslash, tahlil qilish, eng maqbul variantini tanlashni nazarda tutadi.

Pedagogik eksperiment – o'ziga xos tarzda shakllantirilgan, nazorat qilsa bo'ladigan sharoitlarda amalga oshirilgan ta'lim yoki tarbiya jarayoni bo'lib, pedagogik hodisalarni kuzatish imkonini beradi, tadqiqotning ko'plab masalalarini hal etishga xizmat qiladi.

Mavzu bo'yicha o'tkazilgan eksperimentda pedagogik ta'sirlar yoki sharoitlarning ikki yoki undan ortiq variantlari samaradorligini qiyoslash hamda ulardan biror mezon (samaradorlik, vaqt, kuch va mablag' sarfi kabilar) bo'yicha eng maqbul variantini tanlash maqsadi qo'yildi.

Eksperimental ish Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti qoshidagi akademik litseyning 3-bosqich talabalari o'rtasida "O'zbekistondagi siyosiy partiyalar va ularning davlat boshqaruvidagi o'rni" mavzuidagi mashg'ulot misolida o'tkazildi. Unda uchinchi kursda ta'lim oluvchi 54 nafar o'quvchi ishtirok etdi. Eksperimentning yana bir maqsadi ikki guruhda bir mavzuni ikki xil tarzda, ya'ni birida an'anaviy shaklda, ikkinchisida noan'anaviy shaklda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o'tkazib natijalarni taqqoslash edi.

Yuqoridagi paragraflarda ko'ringanidek, zamonaviy kompyuter texnologiyalari, o'quvchilarni mustaqil ishlashga undovchi yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'tilgan mashg'ulot katta samara berdi. O'tkazilgan pedagogik texnologiyalar talabalarni mustaqil fikrlashga, o'z fikr-mulohazalarini erkin bildirib, o'zini siyosiy partiya a'zolari sifatida tasavvur qilishga va ularning faoliyatini yanada chuqurroq o'rganib tahlil qilish imkonini berdi.

Shu bilan bir qatorda o'qitish jarayonini oldindan loyixalashtirish zarur, bu jarayonda o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitni,

texnik vositalarni, eng asosiysi, o'quvchining imkoniyati va extiyojini hamda hamkorliqdagi faoliyatni tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkii. Qisqa qilib aytganda, o'quvchi-talabani ta'limning markaziga olib chiqish kerak.

O'qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olish kerak. Bunda o'qituvchiga u tomonidan bo'lajak darsni texnologik haritasini tuzib olishi katta ahamiyatga egadir, chunki darsning texnologik harigasi har bir mavzu, har bir dars uchun o'kitilayoggan predmet, fanning xususiyatidan, o'quvchi-talabalarning imkoniyati va extiyojidan kelib chiqqan xolda tuziladi.

XULOSA

Mamlakat siyosiy hayotining barcha sohalarini, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirishda, fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy faolligini kuchaytirish va insonning o'z qobiliyatini to'la ro'yobga chiqarishi uchun tegishli shart-sharoit yaratishda, odamlarning o'z xohish-irodasini erkin ifoda etish, o'z manfaatlarini ro'yobga chiqarish va himoya qilish huquqini rivojlantirish va amalda namoyon qilishda, jamiyatimizda mavjud bo'lgan turli manfaatlar, qarama-qarshi kuchlar va harakatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydigan samarali mexanizmni shakllantirishda ko'ppartiyaviylik tizimi muhim rol o'ynaydi.

1980–90 yillar bo'sag'asidagi siyosiy jarayonlar ta'sirida yuzaga kelgan ayrim ijtimoiy-siyosiy harakatlar, jamoat birlashmalari va tashkilotlari mavjud muammolardan foydalanib, respublikada siyosiy boshboshdoqlik va beqarorlikning kelib chiqishiga ma'lum hissa qo'shdilar.

1991 yil 31 avgustda O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi e'lon qilinishi demokratik va huquqiy davlat hamda barqaror bozor iqtisodiyotiga ega fuqarolik jamiyatini tashkil qilish yo'lida ilk qadam bo'lib, respublikada ko'ppartiyaviylik tizimi shakllanishi va rivojlanishining navbatdagi bosqichini boshlab berdi. Yangi partiyalar shakllanish jarayoni birdaniga butunlay yangi siyosiy maydon shakllantirishga imkon bermaydigan murakkab iqtisodiy va siyosiy sharoitlarda kechdi. SHunga qaramay, ko'ppartiyaviylikka o'tish mamlakat rivojlanishi uchun juda muhim jarayon edi.

Ko'ppartiyaviylik – fuqarolik jamiyatining tarkibiy qismi. Aynan ko'ppartiyaviylik va boshqa jamoat tashkilotlari orqali jamiyatda faoliyat ko'rsatayotgan turli ijtimoiy-siyosiy guruhlarining maqsad va manfaatlar, ehtiyoj va niyatlari yaqqol namoyon bo'ladi. Shuningdek, ko'ppartiyaviylik jamiyatda barcha siyosiy partiya va oqimlarning vakillari o'rtasida tashkiliy va muntazam muloqot olib borish, siyosiy faoliyatning asosiy demokratik

normalariga muvofiq murosaga kelish va uning doirasini kengaytirish, siyosiy ekstremizmga chek qo'yish imkonini ham beradi.

O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining normativ-huquqiy negizi davlat hokimiyatining vakillik organlarini isloh qilish va mamlakatda demokratik saylov tizimini yaratish bilan hamohang rivojlandi.

Saylovlarning ko'ppartiyaviylik asosida o'tkazilishi demokratik davlatning asosiy shartlaridan biridir. Shunday ekan, har bir saylovchi o'zi uchun o'z xohish-irodasiga qarab ovoz berishi shart ekanligini uning ongiga singdirish lozim.

Qonunlarni yaratishda bevosita ishtirok etgan partiya fraktsiyalari ularni amalga oshirishda ham alohida o'rin tutadi. Bu vazifani ular Oliy Majlis komissiyalarining a'zolari bo'lgan o'z vakillari orqali, shuningdek joylardagi boshlang'ich partiya tashkilotlari orqali bajaradilar. Ushbu maqsadda partiyalarning faoliyati quyidagi yo'nalishlarda ham tashkil etilishi mumkin:

- qabul qilingan qonunni aholi orasida targ'ib va tashviq qilish;
- ayollar, yoshlar ishtirokida davra suhbatlari o'tkazish;
- qonundan bevosita manfaatdor bo'lgan aholi guruhlari huzurida uchrashuvlar o'tkazish;
- ilmiy jamoatchilik va manfaatdor shaxslar ishtirokida ilmiy-amaliy anjumanlar o'tkazish va h.k.

Siyosiy partiyalar fraktsiyalarining nafaqat qonunlarni ishlab chiqish va ularni qabul qilish jarayonida, balki ularni keng aholi orasida mohiyatini tushuntirish, qabul qilinayotgan qonunlar sifatini oshirish yuzasidan aniq tadbirlar ishlab chiqish, jamiyatni rivojlantirishning eng ustuvor sohalaridagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlarga rioya etilishini nazorat qilish jarayonida ham roli katta.

Yuqoridagilarga yakun yasab aytish mumkinki, O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik asoslari shakllandi, ya'ni buning huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy shart-sharoitlari mavjud. Ayni vaqtda ko'ppartiyaviylik dunyo standartlarida

bo'lishi uchun jamiyatning siyosiy va huquqiy ongi yanada rivojlanishi, partiyalarning bu boradagi faoliyati jadallashishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov asarlari

1. Каримов И. А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т. 1. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 364 б.
2. Каримов И. А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т. 2. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 380 б.
3. Каримов И. А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т. 3. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 366 б.
4. Каримов И. А. Бунёдкорлик йўлидан. Т. 4. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 349 б.
5. Каримов И. А. Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби. Т. 5. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 384 б.
6. Каримов И. А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т. 6. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – 429 б.
7. Каримов И. А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамыз. Т. 7. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – 413 б.
8. Каримов И. А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пировард мақсадимиз. Т. 8. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. – 525 б.
9. Каримов И. А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. Т. 9. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – 439 б.
10. Каримов И. А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. Т. 10. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 432 б.
11. Каримов И. А. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т. 11. – Тошкент: Ўзбекистон, 2003. – 320 б.
12. Каримов И. А. Тинчлик ва хавфсизлигимиз ўз куч-қудратимизга, ҳамжиҳатлигимиз ва қатъий иродамизга боғлиқ. Т. 12. – Тошкент: Ўзбекистон, 2004. – 400 б.
13. Каримов И. А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т. 13. – Тошкент: Ўзбекистон, 2005. – 448 б.

14. Каримов И. А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари олий қадрият
Т. 14. – Тошкент: Ўзбекистон, 2006. – 273 б.

15. Каримов И. А. Жамиятимизни эркинлаштириш, ислохотларни
чуқурлаштириш, маънавиятимизни юксалтириш ва халқимизнинг ҳаёт
даражасини ошириш – барча ишларимизнинг мезони ва мақсадидир. Т. 15.
– Тошкент: Ўзбекистон, 2007. – 320 б.

16. Каримов И. А. Мамлакатни модернизация қилиш ва
иқтисодийтимизни барқарор ривожлантириш йўлида. Т. 16. – Тошкент:
Ўзбекистон, 2008. – 368 б.

17. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент:
Маънавият, 2008. – 176 б.

18. Каримов И. А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози,
Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. –
Тошкент: Ўзбекистон, 2009. – 56 б.

II. Qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar

19. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Тошкент:
Ўзбекистон, 2008. – 40 б.

20. «Давлат бошқарувини янгилаш ва янада демократлаштириш
ҳамда мамлакатни модернизация қилишда сиёсий партияларнинг ролини
кучайтириш тўғрисида» 2007 йил 11 апрел конституциявий қонуни
//Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2007.–
№ 4. – 161-модда.

21. «Сиёсий партиялар тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг
1996 йил 26 декабр қонуни //Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг
ахборотномаси. – 1997.– № 2. – 36-модда.

22. «Сиёсий партияларни молиялаштириш тўғрисида» Ўзбекистон
Республикасининг 2004 йил 30 апрел қонуни //Ўзбекистон Республикаси
Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2004.– № 5. – 86-модда.

23. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати аъзоларининг сайловига тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссиясининг қарори //Халқ сўзи. – 2004. – 31 дек.

24. «Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг Регламенти тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 29 август қонуни //Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2003. № 9–10. – 137-м.

25. «Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасининг Регламенти тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 29 август қонуни //Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2003. – № 9–10. – 136- модда.

26. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисига сайлов тўғрисида Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 29 август (янги таҳрирдаги) қонуни //Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2003. № 9–10. – 137-м.

27. «Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Сенати тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 2002 йил 12 декабрдаги конституциявий қонуни //Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2002. – № 12. – 213-модда; 2003. – № 5. – 67-модда.

28. «Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Қонунчилик палатаси тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 2002 йил 12 декабрдаги Конституциявий қонуни //Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2002. – № 12. – 215-модда; 2003. – № 5. – 67-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг ахборотномаси. – 2007. – № 4. – 163-модда; № 7. – 326-модда.

III. Ilmiy adabiyotlar

29. «Миллий тикланиш» – боқий партия. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – 70 б.

30. Абдунабиев А. Многопартийность – форма политической организации общества. – Тошкент: Ўзбекистон, 1991. – 111 с.
31. Ахборот-маълумот материали. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Қонунчилик палатаси (чизма ва жадваллардаги иловалар билан). – Тошкент: Ўзбекистон, 2006. – 60 б.
32. Аҳмадшоева М. А., Расулов Ш. В. Сайлов қонунчилиги: 100 саволга 100 жавоб. – Тошкент: ТДЮИ, 2004. – 48 б.
33. Беков И. Р., Аббосхўжаев Ш. А. Сайлов ва сиёсий партиялар. – Тошкент: ТДЮИ, 2004. – 40 б.
34. Биринчи чақириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг депутатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1995. – 46 б.
35. Бойдадаев М. Ўзбекистон Республикасида давлат бошқаруви тизими шаклланиши ва ривожланишининг ҳуқуқий асослари. – Тошкент: Академия, 1999. – 184 б.
36. Движение предпринимателей и деловых людей – Либерально-Демократическая партия Узбекистана (УзЛиДеП). – Тошкент: Академия, 2007. – 68 с.
37. Ёшлар – буюк келажак бунёдкори: Ёшлар ўртасида тарғибот-ташвиқот ишларини ташкил қилувчи партия ҳудудий Кенгашлари «Ёшлар қаноти» гуруҳлари етакчилари учун услубий қўлланма. – Тошкент: ЎзЛиДеП Сиёсий кенгаши Ижроия қўмитаси, 2007. – 108 б.
38. Жонкуяр бунёдкорлар партияси. – Тошкент: Университет, 1999. – 104 б.
39. Жумаев Р. З. Давлат ва жамият: демократлаштириш йўлида. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 144 б.
40. Жумаев Р. З. Политическая система Республики Узбекистан: становление и развитие. – Тошкент: Фан, 1996. – 207 с.
41. Жумаев О. Сиёсий партияларнинг сайлов жараёнидаги этикаси. – Тошкент: ТДЮИ, 2004. – 25 б.

42. Жўраев Н. Янгиланишлар концепцияси яратилиши, эволюцияси ва амалиёти. – Тошкент: Маънавият, 2002. – 80 б.
43. Жўраев Н., Файзуллаев Т. Мустақил Ўзбекистон тарихи. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2009. – 664 б.
44. Зокиров С.Ҳуқуқий давлат ва фуқаролик жамияти сари. – Тошкент: Меҳнат, 1999. – 120 б.
45. Кормаков Е.С., Сиденко А.С. Вы начали эксперимент,... Вы начали эксперимент? Вы начали эксперимент! М., 1996.
46. Мамадалиев Ш. Ўзбекистон сиёсий партиялари: шаклланиш жараёнлари ва ривожланиш истиқболлари. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2004. – 52 б.
47. Мамадалиев Ш. О. Халқ ҳокимияти. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2003. – 224 б.
48. Мирхамидов М. Ўзбекистон: демократик ҳуқуқий давлат ва фуқаролик жамияти қуриш йўлида. – Тошкент: Шарқ, 2003. – 272 б.
49. Мустафоев Б., Назаров Қ. Ким депутат бўлиши мумкин? – Тошкент: ТДЮИ, 2004. – 32 б.
50. Новикова Т.Г. Проектирование эксперимента в образовательных системах. М., 2002.
51. Одилқориев Х. Икки палатали парламент шароитида қонунчилик жараёни. – Тошкент: Ўзбекистон, 2005. – 40 б.
52. Одилқориев Х. Т., Раззоқов Д. Х. Сиёсатшунослик. – Тошкент: Ўқитувчи, 2008. – 342 б.
53. Одилқориев Ҳ. Т., Тултеев И. Т. Икки палатали парламент. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2005. – 344 б.
54. Парламент сайлови: миллий қонунчилик ва хорижий тажриба. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Амалдаги қонун ҳужжатлари мониторинги институти, 2009. – 286 б.
55. Поташник М.М. Организация опытно-экспериментальной работы в школе. М., 1991.

56. Поташник М.М. Эксперимент в школе: организация и управление. М., 1991.
57. Расулова Н.С. Ўзбекистон сиёсий партияларининг ўз электорати манфаати йўлида олиб бораётган ишлари // ЎЗМУ хабарлари. – Тошкент, 2007. – № 1. – Б. 55–57.
58. Расулова Н.С. Ўзбекистон сиёсий партияларининг ёшлар билан олиб бораётган ишлари // Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. – Тошкент, 2008. – № 4. – Б. 138–143.
59. Расулова Н.С. Сиёсий партияларнинг парламент сайловига тайёргарлик кўриш ва уни ўтказишга оид фаолиятини молиялаштириш ҳамда уларнинг маблағлардан фойдаланиши // Фуқаролик жамияти. – Тошкент, 2009. – № 3. – Б. 25–26.
60. Расулова Н.С. Ўзбекистонда кўппартиявийлик тизими вужудга келишининг объектив зарурати ва шаклланишининг босқичлари // Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. – Тошкент, 2011. -- № 2. – Б. 35—39.
61. Раҳматуллаев Т. Сиёсий партия ва демократик тамойиллар. – Самарқанд: Зарафшон, 1989. – 80 б.
62. Сиденко А.С. Новикова Т.Г. Эксперимент в образовании. М., 2002.
63. Сиденко А.С. Нужен ли эксперимент практику? // Школьные технологии. – 1997.-№ 1
64. Сиденко А.С., Чернушевин В.А. Вы начали эксперимент...// Народное образование. – 1997. - № 7,8.
65. Сиёсий партиялар мамлакатни модернизациялаш жараёнида . – Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2009. – 396 б.
66. Сиртюк А.Л. Обучение детей с учетом психофизиологии: Практическое руководство для учителей и родителей. – М.: ТЦ «Сфера», 2000. – 128с.
67. Тадбиркорлар ва ишбилармонлар ҳаракати – Ўзбекистон Либерал-демократик партияси дастури. – Тошкент, 2004. – 18 б.
68. Тонков Е.В., Сердюков Н.С. Исследовательско-творческая деятельность учителя. Белгород, 1998.
69. Тонков Е.В., Сердюков Н.С. Профессиональное развитие педагогов в системе повышения квалификации. Белгород, 2003.
70. Фридман Л.М., Пушкина Т.А., Каплунович И.Я. Изучение личности учащегося и ученических коллективов. – М., 1988.

71. Халилов Э. Х. Ўзбекистон Республикасининг қонун чиқарувчи олий органи: сохта вакилликдан ҳақиқий парламентаризмга қадар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – 384 б.
72. Шарифхўжаев М. Ўзбекистонда очиқ фуқаролик жамиятининг шаклланиши. – Тошкент: Шарқ, 2003. – 512 б.
73. Шарқона босиқлик сири. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – 135 б.
74. Эксперимент. Большая советская энциклопедия. 3-е изд., т. 30.
75. Юнусов Х. Ўзбекистон: сиёсий ислохотлар ва жаҳон тажрибаси. – Тошкент: Шарқ, 2002. – 163 б.
76. Ўзбекистон «Адолат» социал-демократик партиясининг дастури. – Тошкент, 1995. – 32 б.
77. Ўзбекистон «Адолат» социал-демократик партиясининг низоми. – Тошкент, 1995. – 44 б.
78. Ўзбекистон «Ватан тараққиёти» партиясининг низоми ва дастури. – Тошкент, 1994. – 30 б.
79. Ўзбекистон беш йил демократия ва бозор ислохотлари йўлида. – Тошкент: Шарқ, 1996. – 298 б.
80. Ўзбекистон демократик ислохотлар: якунлари, муаммолар, вазифалар. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 372 б.
81. Ўзбекистон жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох қилиш йўлида. – Тошкент: Академия, 2005. – 640 б.
82. Ўзбекистон Миллий тикланиш демократик партиясининг низоми ва дастури. – Тошкент, 1995. – 22 б.
83. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси – давлат ва жамият ислохотининг ҳуқуқий асоси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 312 б.
84. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси – фуқаролик жамияти ва ҳуқуқий давлатни шакллантириш асоси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2003. – 517 б.

85. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасидаги ЎзЛиДеП фракцияси фаолияти: Баённомалар ва ҳисоботлар. – Тошкент, 2005. – 231 б.

86. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасидаги ЎзЛиДеП фракцияси фаолияти. Баённомалар ва ҳисоботлар. – Тошкент, 2006. – 383 б.

87. Ўзбекистон Фидокорлар миллий демократик партияси низоми ва дастури. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2004. – 64 б.

88. Ўзбекистон Фидокорлар миллий демократик партиясининг сайловолди ҳаракат дастури. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2004. – 80 б.

89. Ўзбекистон Халқ демократик партиясининг Дастури. – Тошкент: Университет, 1999. – 31 б.

90. Ўзбекистон Халқ демократик партияси Дастури. Ўзбекистон Халқ демократик партияси Низоми. – Тошкент, 1992. – 22 б.

91. Ўзбекистон Халқ демократик партиясининг Дастури. – Тошкент, 2005. – 40 б.

92. Ўзбекистон Халқ демократик партиясининг миллий мафкураси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – 24 б.

93. Ўзбекистон Халқ демократик партиясининг Устави. – Тошкент, 2005. – 38 б.

94. Ўзбекистонда сиёсий партиялар. – Тошкент: Минтақавий сиёсат жамғармаси, 2007. – 249 б.

95. Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: сиёсий партиялар, мафкуралар, маданиятлар. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 160 б.

96. Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: назария ва хорижий тажриба. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – 204 б.

97. Қирғизбоев М. Партология. – Тошкент: Академия, 2007. – 191 б.

98. Қурбонов С. Ш. Ўзбекистон Халқ Демократик партияси (Ташкил топиши ва фаолиятидан лавҳалар). – Тошкент: Университет, 2001. – 208 б.

99. Ғулом Мирзо. Сайловлар ва оммавий ахборот воситалари. – Тошкент: ТДЮИ, 2004. – 72 б.

100. Ҳамидова К. Т. Сайловлар ва сиёсий партиялар фаолиятини молиялаштириш. – Тошкент: ТДЮИ, 2004. – 39 б.

101. Ҳусанова М. Ўзбекистон Республикасида фуқаролик жамиятини шакллантиришда сайлов тизими ва сайлов ҳуқуқининг аҳамияти. – Тошкент: ТДЮИ, 2004. – 32 б.

VII. Internet ma'lumotlari

102. «Адолат» СДП ёшлар қанотининг мақсад ва вазифалари // <http://www.adolat.uz>

103. Press reliz. – 2004. – 26 dek. // www.elections.uz.

104. ИА «Press-uz.info». Политические партии Узбекистана активизируют борьбу за влияние среди молодежи. 06/09/2006. (мнение эксперта – заместитель директора Института по изучению гражданского общества Баходир Эргашев) // www.uzlidep.uz

105. Народно-демократическая партия Узбекистана (краткая справка) // www.xdp.uz

106. УзЛиДеП за активное участие молодежи в законотворческом процессе // <http://www.uzlidep.uz>.

107. Фермеры обрели свой печатный орган // <http://www.uzlidep.uz>

108. ЎзА. Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссиясида // http://elections.uz/uzb/yangiliklar/o'zbekiston_respublikasi_markaziy_saylov_komissiyasida_1.mgr

109. Ўзбекистон «Адолат» СДПнинг 2006–2009 йилларга мўлжалланган фаолият дастури // www.adolat.uz

110. Ўзбекистон «Миллий тикланиш» демократик партиясининг дастури // http://www.uzmtdp.uz/uzmtdp_dasturi

ILOVALAR

№	ATAMA	QISQACHA IZOH
1.	“Birlik” partiyasi	<u>“Birlik” partiyasi</u> - 1988-yilga kelib Yozuvchilar uyushmasi respublikaning siyosiy hayotiga sezilarli ta'sir o'tkazuvchi jamoat markaziga aylandi. 1988-yilning 11 noyabrida “Birlik” xalq harakatini tuzish to'g'risida qaror qabul qilindi. 1989-yilning 28 mayida Birlik” xalq harakati (rahbari Abdurahim Po'latov) jamoat tashkiloti sifatida tashkil topdi.
2.	“Erk” partiyasi	<u>“Erk” partiyasi</u> - 1989-yil sentyabrida “Birlik” harakatida bo'linish sodir bo'ldi. Uning Muhammad Solih tevaragiga birlashgan bir qismi “Erk” partiyasini tasis etdi. 1990-yil 30 aprelda “Erk” demokratik partiyasining tasis quriltoyida uning dasturi va nizomi qabul qilindi.
3.	O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi	<u>O'zbekiston Respublikasi Xalq Demokratik partiyasi</u> 1991 yil 1 noyabrda Toshkentda bo'lib o'tgan Ta'sis qurultoyi Qaroriga binoan tuzildi, uning Dasturi va nizomi qabul qilindi. Partiya raisi qilib I.A.Karimov saylandi. Bu partiyaning a'zolari soni 450 mingga yaqin. 1994 yildagi saylovlarda XDP vakillari Oliy Majlisda deputatlarning 27 foizdan ziyodini tashkil qildilar. O'zbekiston XDPning dasturi quyidagilardan iborat: - milliy mustaqillikni mustahkamlash; - tub iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy islohotlarni amalga oshirish orqali ravnaq topgan, qudratli, demokratik davlat, adolatli, insonparvar jamiyatni bunyod etish;
4.	O'zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi	<u>“Adolat” sotsial-demokratik partiyasi</u> 1995 yil fevral oyida tuzilgan. O'zbekistonning 147 shahar va tumanlarida hududiy tashkilotlari mavjud. “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi: - xuquqiy demokratik davlat qurish; - mamlakat mustaqilligini mustahkamlash; - Vatanga sodiq xizmat qilish; - adolatli fuqaroviy jamiyat qurish; “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida 47 ovozga (1998 yilga) ega bo'lib, ular partiyaning parlamentdagi fraksiyasini tashkil etadi. Partiyaning nashri - “Adolat” gazetasi.
5.	“Xalq birligi” jamoatchilik harakati	<u>“Xalq birligi”</u> jamoatchilik harakati 1995 yil may oyida O'zbekiston jamoatchiligining tashabbusi bilan tashkil qilindi. “Xalq birligi” - siyosiy partiya emas, balki umumxalq harakati bo'lib, siyosiy partiyalar bilan hamkorlikda ishlaydi. Harakatning asosiy maqsadi: demokratik, xuquqiy davlat va adolatli fuqaroviy jamiyat yaratish uchun kurashda O'zbekistonda istiqomat qilib turgan barcha millat va elatlarni jipslashtirish. Matbuot organi - “Birlik” va “Edinstvo” gazetalari.
6.	O'zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi	<u>“Milliy tiklanish” demokratik partiyasi</u> 1995 yil 3 iyunda O'zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi Ta'sis qurultoyida tashkil qilingan. Bu partiya o'z faoliyatida ko'proq ziyolilarga suyanadi. “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardir: - millatning ma'naviy birligi; - Vatan (Turkiston) - yagona oila;

		- kuchli demokratik davlat; - milliy qadriyatlar; - ilmiy-texnikaviy taraqqiyot va umumjahoniy integratsiya; Matbuot organi - “Milliy tiklanish” gazetasi.
7.	O'zbekiston Fidokorlar milliy demokratik partiyasi	<u>“Fidokorlar” milliy demokratik partiyasi</u> 1999 yil 4 yanvarda tashkil etilgan. Bu partiya o'z nomi bilan vatan fidokorlarini, vatan ravnaqi uchun kuyib, yonib yashaydigan o'zbekiston fuqarolarini birlashtirdi. “Fidokorlar” milliy demokratik partiyasi o'z maqsad va niyatlari bir xil bo'lganligi uchun “Vatan taraqqiyoti” partiyasi bilan birlashdi va hozirda “Fidokorlar” nomi ostida o'z faoliyatini davom ettirmoqda. 1999 yil dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlarda partiya deputatlikka o'z nomzodlarini qo'ydi. 2000 yil yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga bo'lib o'tgan saylovlarda “Fidokorlar” milliy demokratik partiyasi nomidan prezidentlikka Islom Abdug'aniyevich Karimov nomzodi ko'rsatildi.
8.	O'zbekiston Liberal demokratik partiyasi	<u>O'zbekiston Liberal demokratik partiyasi (O'zLiDeP)</u> – tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati 2003-yilda tashkil topgan. Partiyaning asosiy maqsadi – tadbirkorlar va ishbilarmonlar kengroq faoliyat ko'rsatishi uchun yangi imkoniyatlarni ochish. Partiyaning oily organi quriltay bir yilda bir marta chaqiriladi. Partiyaning XXI asr xaftalik gazetasi bor.
9.	O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi	<u>O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi</u> -Qonun chiqaruvchi xokimiyatni amalga oshiruvchi oily davlat vakillik organi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi bir palatali organdir. Oliy Majlisi xududiy bir mandatli saylov okruglari bo'yicha ko'p partiyalik asosida saylanadigan 250 nafar deputatdan iborat.
10.	Elektorat	<u>Elektorat</u>(lotincha <i>elector- salovchi, electorate – saylovchilar kontingenti, saylov korpusi</i>) – davlat, mamuriy – hududiy birlik, saylov okrugi barcha saylovchilarning umumlashtirilgan nomi.
11.	Siyosiy partiyalar	<u>Siyosiy partiyalar</u> - Fuqarolarning qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko'ngilli birlashmasidir.
12.	Senat	<u>Senat</u>(lotincha <i>senatus, senex- qariya, oqsoqollar kengashi so'zlaridan</i>)- bir qator mamlakatlarning (AQSh, Fransiya, Italiya, O'zbekiston, Qozog'iston va b.) parlamentlari yuqori palatalarining nomi.
13.	Prezident	<u>Prezident</u>(Lotincha <i>praesidents –oldinda turuvchi</i>) respublika boshqaruv shakli amalda bo'lgan davlatlarda davlat va ijro etuvchi hokimiyat yoki faqat davlat boshlig'i. BMT ga a'zo bo'lib kirgan 190 mamlakatlarning 140 dan ortig'ida prezidentlik lavozimiga amal qilingan.
14.	Parlament	<u>Parlament</u>(ing. <i>Parliament fr. Parliament-so'zlash</i>)-demokratik davlatlardagi vakillik organlari bo'lib, qonun chiqarish faoliyati bilan shug'ullanadi. Bu organ har bir davlatga har xil ataladi. Congress, oliy majlis, federatsiya kengashi va x.k.
15.	Palata	<u>Palata</u>(lot. <i>Palatium-saroy; ing chamber</i>) – konstitutsiyaviy xuquq asoslariga ko'ra, davlat vakillik organlarining yoki ularning ayrim bo'g'inlari nomi (mas., bir palatali,ko'p palatali tashkiliy tizim).
16.	Ko'p partiyaviylik	<u>Ko'p partiyaviylik</u> – hozirgi demokratik davlatlarda siyosiy hayotni tashkil etishning asosiy konstitutsiyaviy prinsiplaridan biri, siyosiy va mafkuraviy plyuralizm (xilma-xillik) ning ancha umumiyroq bo'lgan prinsipi ifodasi sifatida baholanadi.

17.	Konstitutsiya	<u>Konstitutsiya</u> (lotincha <i>constitutio</i> – oʻrnatish, tuzilish)- moddiy maʼnoda avvalo inson va fuqaro xuquqlari, erkinliklarini mustahkamlovchi va kafolatlovchi, shuningdek ijtimoiy tuzim asoslarini, boshqaruv shakli va davlat tuzilishi asoslarini, hokimiyat markaziy va maxalliy organlarini tashkil etish asoslarini, ularning vakolatlari va oʻzaro munosabatlarini belgilaydigan qonun xujjati.
18.	Ikki palatali parlament tizimi	<u>Ikki palatali parlament tizimi</u> – parlament tarkibida ikkita bir-biridan mustaqil vakillik organi (palata) ning faoliyat yuritishi (Germaniya, Italiya, Fransiya, AQSH, Yaponiya, Rossiya, Oʻzbekiston va b.). Parlament bir palatali va ikki palatali kabi turlarga boʻlinadi.
19.	Ikki partiyaviy tizim	<u>Ikki partiyaviy tizim</u> – hokimiyat uchun asosiy saylovoldi kurashda ikkita partiya ishtirok etadigan va ularning xar ikkisi davlat boshqaruvida ishtirok etish imkoniyatiga ega boʻlgan tizim. Ikki partiyaviylik tizimining klassik misoli AQSH dir.
20.	Deputat	<u>Deputat</u> (lot. <i>deputatus</i> – vakil) – qonunchilik davlatining boshqa vakillik organiga saylangan shaxs, aholini maʼlum qismi – oʻz saylov organi saylovchilarining yoki butun millatning vakili.
21.	Jamoat tashkilotlari	<u>Jamoat tashkilotlari</u> – fuqarolarning siyosiy faolligi va ijodiy tashbbuskorligini rivojlantirishga, extiyojlarini qondirishga koʻmaklashuvchi ularning koʻngilli uyushmasidir.
22.	Respublika	<u>Respublika</u> (lot. <i>res.</i> – ish, <i>publicus</i> – ijtimoiy) –davlat boshqaruvi shakllaridan biri; bunda davlat hokimiyatining yuqori organlari saylanadi yohud umummilliy hokimiyat (parlament) tomonidan shakllantiriladi. Xozirgi vaqtda jaxonning 140 dan ortiq davlatida respublika boshqaruv shakli mavjud.
23.	Referendum	<u>Referendum</u> (lot. <i>referendum</i> – xabar berilishi lozim boʻlgan maʼlumot) – demokratiyaning zaruriy institutlaridan hisoblanadi, saylovchilarning biron – bir ijtimoiy va davlat masalalarini hal etishda ovoz berishini bildiradi.

SAYLOV JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH BORASIDA QONUNCHILIKKA KIRITILGAN MUHIM O'ZGARISHLAR (2009 YIL)

Qonunchilik palatasidagi deputatlar o'zining ko'paytirilishi	120 tadan 150 taga
Deputatlar faqat siyosiy partiyalardan saylanish tartibining joriy etilishi	135 nafar
Deputatlikka nomzodlar ishonchli vakillari sonining ko'paytirilishi	5 nafardan 10 nafargacha
Partiyalar saylovda ishtirok etish huquqiga ega bo'lish uchun to'plashi lozim bo'lgan saylovchilar imzolari sonining kamaytirilishi	50 mingdan 40 minggacha
Saylovda ishtirok etish istagidan partiyaning O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatga olish muddatining qisqartirilishi	6 oydan 4 oygacha

SIYOSIY PARTIYALARNI MOLIALASHTIRISH

- + Siyosiy partiyalar faoliyatini davlat tomonidan moliyalashtirish amaliyoti XX asrning 50-yillari o'rtasidan boshlangan. Bu turdagi amaliyot dastlab uchta mamlakatda (1954 yilda Kosta-Rika, 1955 yilda Argentina, 1959 yilda Germaniya Federativ Respublikasida) boshlangan bo'lsa, 80-yillarga kelib davlat tomonidan moliyalashtirish 21 ta mamlakat qonunchiligida mustahkamlandi.
- + 90-yillar o'rtasiga kelib bu amaliyot ommalashib, uni qo'llaydigan mamlakatlar soni bir necha baravar ko'paydi, partiyalarni moliyalashtirishni huquqiy tartibga solish tobora muhim masalaga aylana bordi.

O'ZBEKISTON XALQ DEMOKRATIK PARTIYASI (O'ZXDP)



- ✗ Tashkil etilgan vaqti: 1991 yil 1 noyabr
- ✗ Partiyaning asosiy maqsadi: ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga va himoyaga muhtoj fuqarolarining manfaatlarini himoya etish.
- ✗ Partiya elektorati: Band bo'lmagan mexnatga layoqatli aholi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj sezadigan va ishga joylashishda kiyinchiliklarga duch kelayotgan odamlardir. Bular - pedagoglar, vrachlar, boshqa ijtimoiy sohalarning xodimlari va mutaksassislari, kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalar, pensionerlar hamda, imkoniyatlari cheklangan kishilar.
- ✗ Partiya nashri: "O'zbekiston ovozi" va "Golos Uzbekistana" gazetalari

1

TADBIRKORLAR VA ISHBILARMONLAR XARAKATI - O'ZBEKISTON LIBERAL-DEMOKRATIK PARTIYASI (O'ZLiDeP)



- ✗ Tashkil etilgan vaqti: 2003 yil 15 noyabr.
- ✗ Partiyaning asosiy maqsadi: siyosiy kuch sifatida birlashgan holda tadbirkorlar va ishbilarmonlarning yanada kengroq faoliyat yuritishlari uchun yangi imkoniyatlar ochish, ularning istikbolini ham nazariy, ham amaliy jihatdan asoslab berish, jamiyatning ushbu tabaqasi manfaatlarini himoyalash barobarida uning ertangi kunini ta'minlash
- ✗ Partiya elektorati: fermerlar va tadbirkorlar
- ✗ Partiya nashri: "XXI asr" gazetasi

9

O'ZBEKISTON "MILLIY TIKLANISH" DEMOKRATIK PARTIYASI (O'ZMTDP)



- ✗ Tashkil etilgan sanasi: 3 iyun 1995.
- ✗ 2008 yil 20 iyunda 'Fidokorlar' demokratik partiyasi bilan birlashgan
- ✗ Partiyaning asosiy maqsadi:
Fuqarolarda milliy o'zlikni anglashning o'sishi, milliy g'urur, Vatanga sadoqat va muhabbat tuyg'usini shakllantirish hamda mustahkamlash uchun qulay sharoit yaratish
- ✗ Partiya elektorati: ziyolilar, madaniyat va maorif xodimlari
- ✗ Partiya nashri: "Milliy tiklanish" gazetasi

10

O'ZBEKISTON "ADOLAT" SOTSIAL-DEMOKRATIK PARTIYASI ("ADOLAT" SDP)



- ✗ Tashkil etilgan vaqti: 1995 yil 18 fevral
- ✗ A'zolari soni: 77210
- ✗ Boshlang'ich tashkilotlari soni: 2590 ta
- ✗ Partiyaning asosiy maqsadi:
kuchli ijtimoiy-xukukiy davlat barpo etish;
adolatli fukarolik jamiyatini yaratish;
ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iktisodiyoti rivojlanishiga tasir qilish;
jamiyatda ijtimoiy adolat printsiplarini, inson huquq va erkinliklarini mustahkamlash.
- Partiya elektorati: davlat xizmatchilari, shifokorlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari, advokatlar
- ✗ Partiya nashri: "Adolat" gazetasi

11

JAHON MAMLAKATLARIDA PARTIYAGA A'ZOLIKNING XUSUSIYATLARI

Germaniya	AQSH	Xitoy
markazlashgan partiya apparatiga ega, partiya a'zosi partiya bileti oladi, partiya badallarini to'laydi va partiya nizomida nazarda tutilgan barcha intizomiy talablarga bo'ysunadi	rasmiy a'zolik tartibi yo'q, partiya a'zolariga qat'iy tashkiliy a'zolik, shuningdek uning safida ishlash va a'zolik badallarini to'lash majburiyatlari yuklatilmaydi, partiya bo'lib o'tgan saylov davrida ovoz bergan fuqarolarning hammasi rasman partiya a'zolari hisoblanadi	kommunistik bo'lmagan partiyalar muxolif emas, balki XKPga do'st partiyalar hisoblanadi. Bir vaqtda ikkita siyosiy partiya a'zo bo'lish mumkin.

15

FRAKTSIYALAR TASHKIL ETISHNING XORIJ TAJIRIBASI

Partiyaviy fraksiyalar tashkil qilishda son mezoni yagona partiya mansub deputatlar sonining eng kam miqdori mavjudligini bildiradi. Mazkur mezon yo deputatlarning muayyan eng kam sonini belgilash orqali (Frantsiyada – Milliy Majlisda 20 nafar, Senatda 10 nafar deputat; Avstriya va SHveytsariyada – 5 nafar deputat va h.k.), yo palata umumiy sonining muayyan foizini belgilash orqali (GFR Bundestagida 5 %) ta'minlanadi. Ba'zan fraksiya tashkil qilish uchun biror minimum umuman belgilanmaydi, bunda bittadan ortiq mandatga ega bo'lgan har qanday mustaqil partiya parlament guruhini tashkil qilishga haqli bo'ladi (Armaniston, Portugaliya).

16

GLOSSARIY

	O'zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida
1.	partiya	партия	party
2.	siyosiy partiya	политическая партия	political party
3.	fraktsiya	фракция	fraction
4.	prezident	президент	president
5.	loyiha	проект	project
6.	senat	сенат	senate
7.	palata	палата	chamber
8.	ikki palatali tizim	двухпалатная система	bicameralism
9.	bir palatali tizim	однопалатная система	unicameral system
10.	deputat	депутат	deputy
11.	referendum	референдум	referendum
12.	parlament	парламент	parliament
13.	demokratiya	демократия	democracy
14.	saylov	выборы	elections
15.	elektorat	электорат	electorate
16.	jamiyat	общество	society
17.	gazeta	газета	newspaper
18.	ko'ppartiyaviylik	многопартийность	multiparty system
19.	funktsiya	функция	function
20.	innovatsiya	инновация	innovation
21.	pedagogika	педагогика	pedagogy
22.	eksperiment	эксперимент	experiment
23.	adolat	справедливость	justice
24.	boshqaruv	руководство	guide
25.	davlat	государство	state
26.	din	религия	religion
27.	javobgarlik	ответственность	responsibility
28.	ijro etuvchi organ	исполнительный орган	executive
29.	insonparvarlik	гуманизм	humanism
30.	islohot	реформа	reform
31.	kodeks	кодекс	code, codex
32.	konstitutsiya	конституция	constitution
33.	metod	метод	method
34.	nizom	положение	position
35.	organ	орган	organ
36.	respublika	республика	republic
37.	o'quvchi	ученик	pupil
38.	hokimiyat	власть	power
39.	huquq	право	law
40.	shartnoma	договор	contract
41.	shaxs	личность	personality
42.	tajriba-sinov	эксперимент	experiment
43.	erkin	свободный	free
44.	fuqaro	гражданин	citizen

45.	mustaqillik	независимость	independence
46.	inson huquqlari	права человека	human rights
47.	pedagogik eksperiment	педагогический эксперимент	pedagogical experiment
48.	ta'lim	обучение	education
49.	liberallashtirish	либерализация	liberalization
50.	norma	норма	norm
51.	o'qituvchi	учител	teacher
52.	qaror	постановление	resolution
53.	qonun	закон	law, act
54.	qonun chiqaruvchi organ	законодательный орган	legislature